

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**  
**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA**  
**INSTITUTI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**  
**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr  
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

**SOBIROVA NAFOSAT ERKABAYEVN**aning  
**«ADABIYOT DARSLARIDA ADABIY TUR VA JANRLARNI**  
**O‘RGATISH USULLARI»**  
mavzusidagi

**BITIRUV - MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: f. f. d. professor K. Qurambayev

**NUKUS – 2015**

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek adabiyoti kafedrası yig‘ilishining 2015-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f. f. n. dots. G. Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f. f. n. S. Matyakubov
Ilmiy rahbar:	f. f. d., prof. K. Qurambayev
Bitiruvchi:	N. Sobirova

Sobirova Nafosat Erkabaevnaning «Adabiyot darslarida adabiy tur va janrlarni o‘rgatish usullari» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «\_\_\_» ball («\_\_\_%») qo‘yildi.

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2015-yil

DAK kotibi:	I. Madiyarov
-------------	--------------

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>4</b>
<b>BIRINCHI BOB. Lirik va liro – epik asarlarni o‘rgatish usullari.....</b>	<b>8</b>
<b>IKKINCHI BOB. Adabiyot darslarida dramatik asarlarni o‘rganish.....</b>	<b>26</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>48</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>51</b>

## KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasi kun tartibiga qo'yildi. Yangi jamiyat poydevorini yaratish, birinchi navbatda, salohiyatli kadrlarga bog'liq ekanligi kundek ravshan edi. Bu ishni esa ta'lim tizimidan, xususan umumta'lim maktablari, kollejlari va akademik litseylardan, qolaversa, oliy o'quv yurtlaridan boshlash lozim edi. Hukumatimiz bu ishga qizg'in kirishdi, turli tadbirlar ishlab chiqildi. Ta'lim xodimlari oldiga katta – katta vazifalar qo'yildi. Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash choralari ishlab chiqilishi zarurligi belgilandi. Qator qarorlar, ta'lim tizimiga doir bir necha farmonlar chiqarildi. Jumladan, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi qabul qilindi. Dasturda mustaqillik davrida ta'lim tizimini qanday mazmun va yo'nalishda olib borish zarurligi aniq belgilab beriladi va bu ishga barcha ta'lim tizimi vakillari safarbar qilindi.

Jamiyatda ma'naviy sog'lom, mustaqil fikrlaydigan avlodni shakllantirishda badiiy adabiyotning roli muhim ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylanganidan ko'pchilik xabardor. Chindan ham, badiiy adabiyot ma'naviy hayotimizning ajralmas bir qismi bo'lish bilan birga har bir shaxs, jumladan umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun ham ma'naviy yetuk insonlar bo'lib yetishishida hal qiluvchi rol o'ynaydi desak mubolag'a bo'lmas kerak. Hurmatli Prezidentimiz I. A. Karimov barcha chiqishlarida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor beradi va ularni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga mutaxassislar diqqatini qaratadi. Yurtboshimizning faqat nutqlaridagina emas, xatto “ Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”, “Adabiyotga e'tibor, ma'naviyatga, kelajakka e'tibor” kitoblarida ham bu masalaga alohida diqqat qaratilgan va bir qator tavsiyalar berilgan ma'lum.

Yoshlarning adabiyot orqali ma'naviy shakllanishi oiladan, shuningdek, maktablar va oily o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonidan boshlanadi. Shunday ekan, yoshlarda, eng avvalo umumta'lim maktablari o'quvchilarida yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishda maktab o'quvchilarining nihoyatda katta. Har bir adabiyot o'qituvchisi darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarni qiziqitira

oladigan pedagogik usullardan foydalanishi zarur. Buning uchun adabiyot o'qituvchisida nafaqat pedagogik mahorat, balki ijodkorlik qobiliyati ham bo'lishi kerak. U badiiy adabiyotni ko'p o'qigan bo'lishi, nafaqat o'qish, balki har bir o'qigan badiiy asari to'g'risida o'zining mustaqil fikriga ham ega bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda adabiyot o'qituvchisida tahlil qilayotgan asariga o'z nuqtai nazarini ham bildira olish salohiyati bo'lishi lozim. Shunday o'qiyuvchigina o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishi mumkin. Adabiyot o'qitishdan maqsad ham shu. Har bir o'quvchini o'qigan asari yuzasidan mustaqil fikr aytishga o'rgatishdan iborat.

Adabiyot o'qiyuvchisi dars o'tish jarayonida yana bir holatga alohida e'tibor qaratish zarur. Ya'ni har bir o'quvchining yoki bu asar haqidagi fikrni uqib olishi, unga munosabat bildirishi kerak. Agar o'quvchining fikrlari xato bo'lsa, uni to'g'rlab, o'quvchuni xafa qilmaydigan shaklda bayon etib borishi lozim bo'ladi. Umumta'lim maktablarida adabiyot ikki yo'nalishda o'rganiladi. Birinchisi mumtoz adabiyotni o'rganish, ikkinchisi zamonaviy adabiyotni o'rganish. Har ikki sohani o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Adabiyot o'qituvchisi buni hisobga olishi lozim. O'zbek adabiyoti tarixini o'rganish, zamonaviy adabiyotni o'rganishga qaraganda ancha murakkab va qiyinroq, adabiyot o'qituvchisidan ko'p mehnat, chuqur bilim, ijodiy salohiyat talab etadi.

Umumta'lim maktablarida o'zbek adabiyoti tarixidan dars beradigan o'qiyuvchi mumtoz adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, har bir mumtoz shoir ijodini tushuntirayotganda uning boshqa shoir va shoiralardan farqini, ijodining o'ziga xos jihatlarini qiyoslab tushuntira olishi zarur. Eng asosiysi, qaysi mumtoz shoir merosi o'tilmasin, uning ijodini u yashagan davr bilan bog'lab tushuntirishi kerak bo'ladi. Buning uchun adabiyot o'qituvchisi nafaqat adabiyotni balki shoir yashab ijod etgan tarixiy davrdan ham xabardor bo'lmog'i lozim. Demak tarix fanidan ham ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishda adabiyot nazariyasidan ham ma'lumot berish rejalashtirilgan. O'quvchi nafaqat u yoki bu asar haqida umumiy

ma'lumotga ega bo'lishi kerak, ayni paytda, asarni tahli qilish uchun nazariy ma'lumotga ham ega bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan umumta'lim maktablari o'quvchilarida adabiy – nazariy tushunchalar ham berib boriladi. Masalan, adabiy turlar va janrlar haqida ma'lumot berish vazifasi o'qiyuvchi zimmasidagi ma'suliyatli ishlardan biri. Buning uchun adabiyot o'qituvchisi, yuqorida qisman qayd etganimizdek, nazariy jihatdan qurollangan, adabiy turlar va janrlarning barchasi xususida mukammal bilimga ega bo'lishi kerak. Adabiyotda mavjud bo'lgan lirik, epik, liro – epik, dramatik turlar haqida o'quvchilarga nazariy ma'lumotlar berishi zarur. Bu tur va janrlarning bir – birlaridan farq qiladigan jihatlari to'g'risida ham amaliy misollar bilan tushuntirishi lozim.

Adabiyot o'qituvchilari uchun o'quvchilariga adabiy – nazariy ma'lumotlar berishida qo'l keladigan juda ko'p manbalar, lug'atlarga alohida - alohida janralarga bag'ishlanagan ilmiy ishlar bor. Har bir tur yoki janrning nazariy asoslarini o'sha manbalardan o'rganishi va o'quvchilarga yetkazishi mumkin. Tur va janrlar haqidagi ma'lumotlar amaliy misollar bilan qanchalik ko'p bog'lab tushuntirilsa, samarasi shuncha yaxshi bo'ladi. Bu jarayonga o'quvchilarni ko'proq jalb qilish ijobiy samara berishi mumkin.

Biz bitiruv malakaviy ishimizga ushbu mavzuni tanlar ekanmiz, adabiyot o'qituvchilarimizga adabiyot darslarida adabiy tur va janrlarni o'tishda qaysi usullardan ko'proq foydalansa yaxshi natijaga erishish mumkinligi haqidagi qarashlarimizni tavsiya sifatida taklif qilishni nazarda tutdik. Tadqiqotimizni asosan ikki bobga ajratdik va birinchi bobida lirik va liro – epik turni o'tishda qanday usullarni qo'llasa yaxshi natijaga erishish mumkinligi to'g'risidagi fikrlarimiz bilan o'rtoqlashamiz. Bitiruv malakaviy tadqiqotimizning ikkinchi bobida dramatik turdagi asarlarni o'rgatishda ko'proq nimalarga e'tibor berish zarurati to'g'risidagi nuqtai nazarlarimizni bayon etishga urinamiz.

Bizning mazkur bitiruv malakaviy ishimiz tilga olingan mavzuni to'la – to'kis xal qilib berishni nazarda tutmaydi. Bu mavzu ancha katta va murakkab mavzulardan biri, u kattaroq ko'lamdagi tadqiqotni taqazo etadi. Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida, ko'proq pedamaliyotimizda orttirgan tajribalarimizga

tayanishga intildik. Oliy ta'lim tizimida adabiyot nazariyasi darslarida olgan nazariy ma'lumotlarimizni pedamaliyotda qo'llashga harakat qildik. Shu mantiqdan kelib chiqib aytsak, bitiruv malakaviy ishimiz, pedamaliyotdagi shaxsiy tajribalarimiz asosida yozildi, desak xato bo'lmasa kerak. Albatta, men kelajakda umumta'lim maktablarida adabiyotdan dars berish jarayonlarida ushbu tadqiqotimdagi ilmiy – amaliy natijalarimdan foydalanaman va o'ylaymanki u mening pedagogik faoliyatimda asqotadi.

## **I BOB**

### **LIRIK VA LIRO EPIK ASARLARNI O'RGATISH USULLARI**

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M. A Ribnikova:„ Metodik usullarni asar tabiyati taqazo qiladi...Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'ni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfga o'qtuvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masalan esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi”.

Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. Prof. Q.Yo'ldoshevning yozishicha, “turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondoshishi, munosabat tarsi o'zgaradi”. Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, “asarlarni tur va janr xususiyatlarga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi”.

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, yani undagi turli – tuman qahramonlar, bir- biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi . Tahlil jarayonida o'qitishning xilma – xil usullaridan foydalaniladi. Bularning orasida adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda



matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o‘zak muammolari o‘quvchining ko‘z oldida osonroq gavdalanadi. Adabiy o‘qishda dastlabki urg‘u tushishi lozim bo‘lgan o‘rinlar ajratiladi, ular o‘quvchilarning ongiga ham, tuyg‘ulariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Gap epik asarlar ustida borar ekan, ularda “har qanday hissiyot voqealar qa’riga berkitilgan” bo‘lishiga e’tibor berish zarurati bo‘ladi, chunki “qahramonlarni hayotiy voqealar og‘ushida ko‘rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o‘quvchidan bu sezimlarni ilg‘ab olish talab qilinadi. Adabiyot o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zamiridagi badiiy ma’noni ilg‘ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi”.

Adabiy o‘qish o‘qituvchining ish faoliyatidagi asosiy metodik vosita bo‘la oladi. Adabiy o‘qish vositasida alohida olingan qahramonning yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqei, asar mavzusi, yozuvchi ko‘zda tutgan badiiy – estetik niyatning ifoda tarziga e’tibor tortilishi mumkin. Masalan, akademik litseylarning 1 bosqichida Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul – haqoyiq” dostoni yoki Rabg‘uziyning “Qissayi Rabg‘uziy” asarini o‘qish jarayonida har ikki adib tanlagan janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o‘quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko‘zda tutilgan badiiy – estetik mohiyat mag‘zini chaqa olmaydilar. Natijada ulardagi haqiqiy badiiy tarovat yo‘qqa chiqadi, ular o‘quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his- tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga yordam berolmaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb – hunar kollejlarning adabiy dasturlarida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotiga mansub bo‘lgan xilma – xil janrlardagi epik asarlarni o‘rganish ko‘zda tutiladi. Jumladan, 5- sinfdan “Uch og‘aini botirlar”, “Susambil” xalq ertaklari, H. Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, Hans Xristian Andersenning “Bulbul”, Janni Rodarining “Hurushni eplolmagan kuchukcha”, Anvar Obidjonning “Odil Burgutshohva”, “Zamburug laqabli josus haqida ertak”

adabiy ertaklari, Alisher Navoiyning “Sher bilan Durroj”, Sa’diyning kichik hikoyalari, Abdulla Qodiriyning “Uloqda”, G’afur G’ulomning “Mening o’g’rigina bolam”, Oybekning “Fonarchi ota”, N. Norqobilovning “Oqbo‘yin”, Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyalari, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissalari berilgan. Ko‘rinib turibdiki, faqat 5-sinfning o‘zidayoq epik turga mansub bo‘lgan xilma- xil janrlardagi asarlar taqdim etilgan. Ayni paytda boshqa sinflarda og‘zaki ijodning doston, yozma adabiyotning roman janrlaridan namunalarni o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Xuddi shuning uchun ham ularning har biriga o‘zlari mansub bo‘lgan janrlar nuqtai nazaridan yondashilishi zarur bo‘ladi, aks holda, o‘quvchilarda noto‘g‘ri taassurot yuzaga kelishi, ko‘zda tutilgan badiiy – estetik samara olinmasligi mumkin.

Adabiy asarning, jumladan epik turga mansub bo‘lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta’limning o‘zak masalalaridan biridir. U “O‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat” yaratadi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar asarning poetic mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga e’tibor qaratadi, tasvirlanayotgan voqea- hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi.

Hatto ayni bir xil janrlardagi epik asarlar tahlilida ham o‘ziga xos yondashuvlar talab etiladi. Alisher Navoiyning “Hamsa”si tarkibida beshta doston bor. Ularning barchasi bir xil janrda yozilgan. Shunga qaramay, ularning har biri o‘z oldiga mutlaqo boshqa- boshqa badiiy- estetik maqsadlarni qo‘ygan. Demak, ularni tahlil qilishda ham shu andozadan kelib chiqish zarur bo‘ladi. “Hayrat ul – abror” falsafiy- didaktik doston. Unda adibning olam va odamga qarashidagi o‘ziga xosliklar falsafiy – axloqiy ruhdagi hikoya, qissa va mulohazalar orqali ifodalanadi.

“Farhod va Shirin”da qahramonlik yo‘nalishi ustivor. U ishqiy- romantikaga to‘yintirilgan qahramonlik dostonidir. “Layli va Majnun” esa adabiyotimiz tarixidagi “eng fojiviy ishq qissasi” sifatida mashhurdir.

“Sab’ayi sayyor” – ishqiy – sarguzasht yo‘nalishda bo‘lsa, “Saddi Iskandariy” qahramonlik dostonidir. Ularda insoniyatning o‘ziga xos ruhiy olami, jamiyatning ijtimoiy- siyosiy, axloqiy – ma’naviy qarashlari, o‘sha davrlardagi ijtimoiy hayot manzaralari aks etgan. Ularda voqealar qamrovi nihoyatda keng, ishtirok etuvchi qahramon va personajlarning soni ham ko‘p, ularning har biriga bog‘liq ravishda esa muallif ko‘zda tutgan badiiy niyat ham rang – barangdir. Tahlil jarayonida mana shu rang – baranglik ham doimiy e‘tiborda turishi kerak bo‘ladi.

Ularning qay birini tahlil qilayotganda qanday usul va yo‘llardan foydalanish kerak degan, savolga bir xildagi javob berish mumkin emas. Bu vazifani alohida olingan sharoit, sinfning o‘ziga xosligi, o‘quvchilarning adabiy tayyorgarligi, qolaversa, o‘qituvchining o‘z bilim va tajribasidan kelib chiqib hal etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Epik asarlarni tahlil qilishda ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o‘rinda turadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-6- sinflarda asosan eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o‘rganiladi. Yirik epik asarlarni o‘rganish esa yuqori sinflarda, shuningdek, akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari o‘rganilishi rejalashtirilgan. Ularning har birini o‘rganishda o‘ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Masalan, akademik litseylarning 2- bosqichida Navoiyning epik asarlari, jumladan, ” Xamsa” dostonlarini o‘rganish belgilangan. Dastlab, Navoiyning hayoti va ijodi o‘rganilar ekan, unda adibning adabiy merosi, bu merosning faqat o‘zbek adabiyoti rivojida emas, balki umumturkiy adabiyot tarixida ham, jahon adabiyoti tarixida ham nihoyatda ulkan voqea bo‘lganligi qayd etiladi. So‘ng adibning asar ustidagi jiddiy mehnatini ko‘rsatib beruvchi epizodlarga e‘tibor tortiladi. Bunday o‘rinlar beshala dostonida ham istagancha topiladi.

O‘qituvchi o‘zi uchun qulay bo‘lgan variantdan foydalanishi mumkin. Bularning natijasida o‘quvchilarda Alisher Navoiy dohosini ta’minlagan ijodiy rivojlanish bosqichlari haqidagi asosli va real tasavvurlar hosil bo‘ladi. Ular adib ijodining ilmiy – ma’rifiy hamda badiiy estetik ahamiyatini teranroq ilg‘aydilar.

Bunga erishish esa osonlikcha kechmaydi. Bu natija turli – tuman metod va usullar qo‘llanishini taqazo etadi. Bular orasidan biz o‘qituvchining kirish so‘zi, yakunlovchi ma‘ruzasi, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Ularda asarlardagi asosiy g‘oyaviy – badiiy mag‘iz, alohida olingan epizodlarning asarning yaxlit sujeti va kompozitsiyasi bilan aloqadorligi, oldingi sinflarda Navoiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan materiallarni eslash va takrorlash nazarda tutilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yana bir narsani eslatish ham o‘rinli bo‘ladiki, hajmiga ko‘ra yirik bo‘lishiga qaramay, zamonaviy romanlarni tahlil qilish ham oson bo‘lmasada, Navoiy asarlarini, umuman, mumtoz epik asarlarni tahlil qilishning qo‘shimcha qiyinchiliklari oz emas. Ayniqsa, ulardagi eskirgan so‘zlarning ko‘pligi, o‘sha davr badiiy talablari, shuningdek, bevosita adib uslubi bilan bog‘liq holatlar shular jumlasidandir. Buning ustiga yirik epik asarlarni o‘rganish uchun talab etiladigan vaqt ham nihoyatda chegaralangan. Qisqa vaqt ichida nihoyatda katta vazifalarni hal qilish zaruriyati o‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham qo‘shimcha imkoniyatlarni qidirishni taqazo etadi.

Metodist olim Safo Matjonning guvohlik berishicha, “Ayrim o‘qituvchilar epik asarlar tahlilini jo‘nlashtirib, yozuvchini o‘quvchi bilan yonma – yon qo‘yadilar. Holbuki o‘quvchilarni yozuvchining badiiy – ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o‘tkazishda o‘quvchilar oldiga “Qahramonning bu ishi to‘g‘rimi?”, “Uning o‘rnida bo‘lganda nima qilar eding?” kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o‘rniga: “Shu vaziyatda qahramon o‘zini boshqacha tutishi mumkinmidi?”, “Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?” singari savollar qo‘yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug‘iladi”.

Rus metodistlarining guvohlik berishicha, “Belkin qissalari” va “Dama qarg‘a” o‘qigan o‘quvchilar Pushkin prozasini uning bor boyligi bo‘yicha tasavvur qila olishmaydi. Asosan qissalarning sujeti tushuniladi, bu ham uning qisqaligi uchun juda chuqur o‘zlashtirilmaydi. O‘ninchi sinf o‘quvchilari mustaqil o‘qishdan keyin muallif nuqtai nazarini ham, Pushkin prozasining badiiy fazilatlarini ham

anglab yetishmaydi”. Biz bu fikrni Alisher Navoiy va mumtoz adabiyotimizning boshqa namoyondalari ijodiga nisbatan ham tatbiq qilishimiz mumkin.

Aslida Alisher Navoiy ijodining, ayniqsa, “Xamsa” dostonlarining poetik o‘ziga xosliklarini puxta o‘zlashtirish, keying davrlardagi mumtoz adabiyotimiz vakillari yaratgan asarlar mohiyatini oson va qulay o‘zlashtirishning puxta asosi bo‘lishi kerak.

Mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichida o‘qituvchi Alisher Navoiyning muhtasham “Xamsa” sining yaratilish tarixi haqida qisqacha ma’lumoti bo‘lishi mumkin. Bu ma’lumotlar o‘qituvchining ma’ruzasi tariqasida ham, sinfning tayyorligiga qarab suhbat asosida ham o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’lumki, “Xamsa” 1483- 1485 yillar orasida – ikki yilda yozilgan. Shunga qaramay, uning tarkibidagi har bir doston mazmun mohiyatiga ko‘ra ham, tuzilishi va tarkibiga ko‘ra ham bir – biriga o‘xshamaydi. O‘qituvchi ma’ruzasi davomida har bir dostonga xos bo‘lgan xususiyatlarni muayyanlashtirish uchun orada o‘quvchilarni suhbatga chorlashi, savol – javoblardan foydalanishi mumkin.

“Hayrat ul – abror” ni o‘rganishda asardagi falsafiy hamda ahloqiy – ma’rifiy muammolar talqiniga asosiy urg‘u berilsa, “Sabb’ ai sayyor” ni tahlil qilishda uning kompozitsiyasiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Hikoya ichida hikoya“ qabilidagi bu asarda mavzu qamrovining kengligi, talqinlarning turfaligi, insoniy xarakterlarning katta miqdori va tasvir imkoniyatlarining keng hajmi o‘quvchilar ongiga yetkazilishi o‘rinli bo‘ladi.

Navoiy asarni maqolotlarga bo‘ladi. Bu sun’iy va tasodifiy xarakterda bo‘lmasdan, muallifning aniq g‘oyaviy – badiiy maqsadlari bilan aloqadordir. Undagi harbir maqolot uchun tanlangan mulohazalar, keltirilgan dalillar, qo‘llangan maqol va hikoyalar muayyan badiiy maqsadlarni ko‘zda tutadi. Eng muhimi, ular badiyatning oliy namunalari sifatida namoyon bo‘ladi. Asardagi birorta obrazning tasodifiyligi yoki voqealar mantig‘iga “ sig‘may qolishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Ulardagi har bir qahramon, har bir personaj, ularning xatti – harakatlari to‘liq asoslangan, bu asoslarning o‘zagini hayotiy mantiq va badiiy haqiqatlar tashkil etadi.

Doston kompozitsiyasidagi barcha unsurlar juda katta ma'naviy hamda emotsional "yuk" ko'tarib turadi.

Doston matnining o'qilishi tahlili jarayonida muallifning shaxsiy nuqtai nazari, uning inson shaxsi bilan aloqador bo'lgan bosh konsepsiyasiga urg'u berish o'rinli bo'ladi.

"Xamsa" turkum dostonlarini o'rganishda Navoiyning adib sifatidagi, shu asarning muallifi sifatidagi munosabatlari ayricha ahamiyat kasb etadi. Dostonlarning barchasida inson va uning hayotdagi o'rnini, shu o'ringa uning ma'suliyati alohida e'tibor bilan chiziladi.

Xamsa dostonlarining sujet qurilishida, kompozitsiyasida ham bu masalalar tegishli inikosini topgan. Jumladan, ulardagi alohida olingan bir qator obrazlar borki, adib o'zi zamondosh bo'lgan davr voqealari yoki tarixiy o'tmish misolida insoniy xarakterlarning takrorlanmas qiyofalarini ko'rsatib beradi. Ba'zan ularni voqealarning tabiiy rivoji ichida tasvirlab bersa, ba'zan ularga o'zining konkret munosabatini juda ochiq ravishda ifodalaydi. Har qanday holatda muallifning shu qahramonlarga bo'lgan munosabati uning kitobxonlarga ham aytadigan gap borligining dalolati bo'la oladi. O'zi tasvirlayotgan voqea yoki xarakterlar silsilasi vositasida u kitobxonni ham tegishli manzillarga yo'llab turganday bo'ladi.

Navoiy asarlarida ijtimoiy hayotga oid barcha qatlamlarning vakillarini kuzatish mumkin. Ular orasida shohlar, vazirlar, savdogarlar, dehqonlar, kemachilar, kosiblar, olimlar, shoirlar va boshqalar mavjud. Bularning barchasi tilga olinar ekan, ularning orasidagi o'zaro munosabatlar ham, bu munosabatlarning namoyon bo'lish shakllari ham bir – bir qalamga olinadi. Yaxlit holda esa biz o'sha davrdagi jamiyat uchun muhim bo'lgan asosiy qonuniyatlar bilan ham tanishib boramiz.

Bizda she'riy janrlar, lirik asarlar haqida yozilgan tadqiqotlar nihoyatda ko'p. Bu bejiz emas. Aslida bizning adabiyotimiz tarixi tom ma'nodagi lirik asarlar tarixi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Klassik adabiyotimizdagi g'azal ming yillar davomida adabiyotimizning butun kuch va qudratini, tilimizning nazokat va

tarovatini ko'rsatadigan bir belgi, ko'rsatgich bo'lib kelganligi buning yorqin dalilidir.

Lirikaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Dastlab shu savolga javob berib ko'raylik. Buning uchun nazariy kitoblarni varaqlashga to'g'ri keladi. Biz "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati, adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasiga oid darsliklardagi ta'riflar bilan qiziqamiz. Mana ular:

**Jamol Kamolda:**

"Qadim Yunonistonda lirika musiqa va raqs san'atlari bilan uzviy, chambarchas hayot kechirgan ekan, Sharqda ham shunday bir holni kuzatish mumkin. Sharqda eng buyuk mutasavvuf shoir Mavlono Jalololiddin Rumi ham o'zining so'fiyona g'azallarini rubob jo'rligida, raqsga tushib aytgan. O'zbek xalqining sevimli klassik shoiri Boborahim Mashrab o'z she'rlarini tanbur ohanglari bilan orastalab kuylab yurgani el orasida ma'lum.

Lirika inson o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagan, o'zini olam ichra yana bir olam deb bilgan va tashqi, obektiv olamga yangicha qaragan sharoitlarda paydo bo'ladi...Lirika parvozini hamisha jamiyat hayoti belgilaydi"

**To'xta Boboevda:**

"Lirika ( Yunoncha "liriks" – lirika jo'rligida kuylash) – badiiy adabiyotning asosiy turlaridan biri bo'lib, biror hayotiy voqea- hodisa tasirida inson qalbida tug'ulgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali voqelikni aks ettiradi".

**Dilmurod Quronovda :**

"Lirika (yun. cholg'u asbobi) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo'lib, o'zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg'u kechinmalarni tasvirlashi olinadi. Ya'ni epos va dramadan farqli ravishda lirika voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramon ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir".

"Adabiyotshunoslikka kirish" da:

"Lirik turga kiruvchi asarlar odatda kichik hajmli bo'lishiga qaramay, turmishni badiiy, obrazli aks ettirishning barcha xususiyat va belgilariga ega. Lirik

turga kiruvchi asarlarda konkret individual kechinmalar orqali tipik kechinmalar ifodalanadi. Shu orqali lirik asarda badiiy umumlashtirish vujudga keladi”.

### **Erkin Xudoyberdiyevda:**

“...lirik tur xususiyatlari asosan to‘rtta:

1. Lirik va eposda ham obektiv va sub’ektiv dunyo aks etdi, lekin eposda birinchisi, lirikada ikkinchisi birinchi o‘ringa chiqadi. Chunki lirika o‘z – o‘zini ifodalshdir, ammo dunyo lirikaga lirik qahramonning ongi orqali o‘tadi, ” men” tilidan ayon bo‘ladi”...

2. Lirik emotsional – xissiy ( meditatif) fikrlashdir, ya’ni u ichki olam, qalb dialektikasi aksidir. Dunyodagi ziddiyatlar dilga ko‘chadi;lirika ichki poeziyadir, ruhiy holat oynasidir.

3. Emotsional – xissiy fikrlash shaxsiy kechinma tusini oladi, ya’ni lirika negizida kechinma turadi, hayot she’rda kechinma shaklida aks etadi, kechinma lirik ta’rif va lirik obrazga aylanadi, shu sababli, shaxsiy kechinma o‘ziga xos tipik tarzga kiradi, odamlar bu kechinmada o‘zini ko‘radi, uni o‘ziniki qilib oladi. Ba’zi shoirning kechinmalari hayotga nisbatan tor, ba’zilariniki keng bo‘lishi mumkin. Kechinmalari boy, teran shoir lirikasining xalqchilligi va umuminsoniyliigi ortadi.

4. Emotsional – hissiy fikrlash his va fikr munosabati mahsulidir. Hayot doimo shoirda quvonch yo nafrat hissini qo‘zg‘aydi, his esa asta sekin xulosaga aylanadi. His - ko‘ngildagi to‘lqinlanish hosilasidir. She’rdagi his tinglovchida ham xuddi shunday his tug‘diradi. Bu esa she’rdagi badiiy idrok va estetik tahlil ham lirik umumlashtirishdan kelib chiqadi.

Bulardan kelib chiqadigan xulosalarni quyidagicha umumlashtirish mumkun:

- lirikaning boshqa san’at namunalari bilan aloqadorligi ochiq sezilib turadi;
- lirika qanchalik individual, xususiy holatlarni aks ettirishiga qaramay, unda jamiyat hayotining ifodasi aks etgan bo‘ladi;
- lirik asarlar inson xis- tuyg‘ularini juda aniq va yorqin tasvirlashi bilan ajralib turadi;
- ulardagi tuyg‘u va kechinmalar tasviri hayotiy voqealar tasvirini ikkinchi darajaga o‘tkazib qo‘yadi;



- ularda tom ma'nodagi rivojlanib boradigan sujet mavjud bo'lmaydi;
- qisqacha qilib aytganda, ularda o'ziga xos she'riy nutq amal qiladi.

**Abu Nasr Forobiy** she'riyatning o'ziga xosligi haqida mulohaza yuritarkan, jumladan, shunday deydi:

“...isbotda ilm, tortishuvda ikkilanish, ritorikada ishontirish qanchalik ahamiyatli bo'lsa, she'riyatda ham xayol va tasavvur shunchalik zarur bo'ladi. Ba'zida inson fe'li ko'proq xayol surishga bog'liq bo'ladi. Bu shundayki, inson bir narsani boshqa biror narsada bor, deb tasavvur qiladi. Buning natijasida u narsalarning borligini xis va isbot tasdiqlagandagina uning o'sha narsada borligiga ishonib, o'shanday qilish mumkun. Hatto bu ishda borligi yolg'on bo'lib, faqat xayol qilingan taqdirda ham, bu harakat – fe'lni amalga oshiradi”.

Tadqiqotchi olim A. Sharapov yozganiday: “ lirik kechinma oqimi poetic tasvir orqali o'quvchida yuzaga keladigan ruhiy hayajon to'lqinlarida o'z ifodasini topadi. Poetik tasvirning haqqoniyligi, uning xarakteri, aniqligi yoki yorqinligi, bosiqligi yoki ko'tarinkiligiga qarab, o'quvchida bir – biriga o'xshamaydigan, bir – birini takrorlamaydigan ruhiy kayfiyat hosil bo'ladi. Bu rang – baranglik, birinchidan, shoirning borliq voqea – hodisalarni his qilishdagi o'ziga xosligi, betakrorligi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, to'g'rirog'i, obektiv yoki subektiv momentning belgilovchiligi bilan izohlansa, ikkinchidan, davr talabi, o'quvchi ruhiy dunyosining rang – barang qatlamlari, uning badiiy didi saviyasi bilan bog'liqdir”

Shu o'rinda yana bir tadqiqotchining mulohazalarini kuzatish o'rinli ko'rinadi. Uning yozishicha, badiiy asarda obekt va subekt tili terminlari ( bu yerda “til“ so'zi nutq ma'nosida) qo'llanadi. Adabiy turlar – lirika, epos va drama tili o'rtasidagi ayirma ham aynan shu nuqtadan – obekt va subekt nutqidan birining dominantlik (ustunlik) qilishidan boshlanadi. Subekt muallif, obekt – qahramonlar ekanligini nazarda tutsak, lirikada subekt nutqi hukmronlik qilishini sezish qiyin emas. Lirik asarlarda bevosita real – hayot voqea – hodisalar bayoni emas, balki ana shu voqea hodisalar natijasida muayyan bir shaxs qalbida tug'ilgan his – hayajon, tuyg'u – kechinmalar tasviri beriladi. Demak, muayyan his – tuyg'u

ayrim olingan bir kishiniki – subektniki, shu his – tuyg‘u ifodalovchi ham subektning o‘zi. Masalan, Abdulla Oripovning “Chorlash” she‘ridan:

Do‘sti g‘arib, kel, qo‘lingni tut,  
Yuragingda yog‘ay alanga.  
Kel, bir zumga dunyoni unut,  
Ko‘tarayin seni balandga.

Ko‘rinib turibdiki, nutq muallifi – lirik qahramon. “Do‘sti G‘arib” ga hamdardlik tuyg‘usi ifoda etilgan bu o‘n ikkilik boshdan – oxir shu lirik qahramon monologidan iborat. Ayrim hollardagina lirik asarlarda (voqeaband she‘r yoki g‘azalda ) qahramon (obekt) nutqi ko‘rinib qoladi, ammo u baribir subekt nutqidan keyingi o‘rinda turishi bilan xarakterlanadi. Shu ma‘noda lirika tilini subekt tili deyish mumkun”.

Lirikaning bu xususiyatlari ta‘lim jarayonida e‘tiborga olinishi shart. Psixologlarning ta‘kidlashicha, IV – VI sinf o‘quvchilari VII – VIII sinf o‘quvchilariga qaraganda lirik asarlarni tushunishga va o‘qishga moyilroq bo‘ladi. Bu moyillik IX – XI sinf o‘quvchilarida yana yangidan rivojlanib boradi.

Demak, ta‘lim jarayonida bu xususiyatlarni e‘tiborga olish, kerak bo‘lsa, ulardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanish lozim. She‘r – emotsional kayfiyat ifodasi. Bu kayfiyatni o‘quvchilarga yuqtira olish esa o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

She‘riy asar bir kishining – shoirning olamni o‘ziga xos ko‘rishi natijasida yuzaga kelgan hosiladir. Hamma gap shu o‘ziga xos qarash va ko‘rishni anglab, his qilib yetishda xolos. Ana shu konkret bitta odamga tegishli tuyg‘ular, hissiyotlar ayni paytda butun insoniyatga, hamma odamlarga bir xilda aloqadiriligini anglash she‘rni his qilishdagi birinchi qadam, dastlabki odim bo‘ladi.

She‘riy asarni anglash, undagi muallif ko‘zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she‘r g‘oyasining mag‘zini chaqish uni o‘qishdan, yanada aniqrog‘I ifodali o‘qishdan boshlanadi.

Imkoni bo'lsa, she'riy asarni professional aktyorlar, taniqli so'z ustalari, o'rni bilan esa ularning musiqa yordamidagi ijrosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunda she'riy asardagi ritm, tovushlar uyg'unligi, so'zning ko'p ma'noliligi, ayni paytda har bir so'z va tovushning jarangi, yangi so'zning oxiri osonroq va ta'sirliroq tarzda namoyon bo'ladi.

She'riy asarlarni tahlil qilishda o'quvchilarning yoshi alohida e'tiborda tutilishi kerak. Misol tariqasida akademik litseylarning o'quvchilarini oladigan bo'lsak, ularning qalbiga lirik asarlar mohiyatini singdirishda mantiqiylik va emotsionallikni qo'shib olib borishning samaradorli bo'lishini ta'kidlash joiz.

Bu yoshda ularga she'riy asarning obrazlar tizimi haqida gapirish, muhokama va munozaralarni shu sohaga burush o'rinli bo'ladi. Ayni paytda she'rning emotsional – obrazli qirralaridan nazariy tushunchalar tomoniga o'tish imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Nazariy tushunchalar asosida she'riy asar obrazlarini tushunish tomon bo'rish ham amaliyotda sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan usullardan hisoblanadi. Buni Navoiy g'azallari misolida ko'rib chiqishimiz mumkin

Akademik litseylarning ikkinchi bosqichida o'qiyotgan o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktabida Hamid Olimjon, Shukrullo, Mahsud Shayxzoda, Atoiy, Bobur, Muqumiy, G'afur G'ulom, Mirtemir, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Zulfiya, Abay, Azim Suyun va boshqa turli davr va turli yo'nalishlarda ijod qilgan shoirlarning she'rlari bilan tanishib ulgurgan bo'lishadi. Ayni paytda ular mumtoz she'riyatning janriy bo'linishlarini, aruz vaznida yozilgan asarlarni hijolarga bo'lib o'rganishni, she'r tuzilishiga oid tushunchalarni o'zlashtirgan bo'lishadi.

Navoiy ijodiga oid darslar vositasida o'quvchilar ongi va tasavvurida buyuk adib siymosini – uning ijodiy qiyofasini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Navoiyning tashqi qiyofasi unga zamondosh bo'lgan san'atkorlar tomonidan chizib qoldirilgan. Imkoni bo'lsa, darsda shu rasmlardan foydalanish maqsadga

muvofiq bo‘ladi. Adibning so‘z vositasidagi portreti esa ko‘plab ijodkorlarda mavjud. Biz Oybek ijodiga ( “ Navoiy “ romani ) murojat qilishimiz mumkun.

Boburning “ Boburnoma “ sidagi ham asqotadi:

“Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. To turkiy til bila she‘r aytibturlar, hech kim onchalik ko‘p va xo‘p aytqon emas”.

Navoiyning shaxsiy fazilatlarini, alohida qobiliyat va iqtidori haqida ham maxsus to‘xtash zarur. Ayniqsa uning zehni, xotirasi haqidagi tarixiy faktlar o‘quvchilarning qalbiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi va bu holat ularning adib ijodiga bo‘lgan qiziqishlarini oshiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra adibning yod olgan asarlari, zamonaviy va o‘tgan adiblardan yod olingan she‘rlarning miqdori haqidagi mulohazalarni ularni yetkazish o‘rinli bo‘ladi.

Navoiy favqulotda qobiliyat egasi bo‘lgan. Uning iqtidori cheku chegara bilgan emas. U juda erta shuxrat qozongan. O‘zidan yoshi ulug‘ bo‘lgan zamondoshlari uning iqtidorini tan olishgan, unga qoyil qolishgan.

Navoiy she‘riyati bilan muloqot o‘quvchilarning ichki olamini, ma‘naviyatini boyishga katta hissa qo‘shadi.

Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she‘rlari faqat o‘sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo‘lishi tabiiydir. O‘quvchilar ongiga mana shu holatlar yetkazilishi kerak.

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

She‘rni tahlil qilish jarayonida uning yuzaga kelishiga omil bo‘lgan hayotiy voqealarning tilga olinishi ham she‘r mohiyatini anglab yetishda asosiy omillardan biri bo‘lishi mumkun. Ammo har bir she‘r ostidagi ruhiy holatni aniqlash va

anglab yetishning ancha qiyinligi, ba'zan umuman bo'lmasligini ham e'tirof etish kerak.

Navoiy she'riyati tuyg'ular va fikrlarning yetukligi, tabiiyligi, favqulodda go'zal va ta'sirchanligi, so'z ma'nolarini kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi.

Ko'rgali husningni zoru muftalo bo'ldum sanga,  
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldim sanga.  
Har necha dedimki, kun- kundin uzay sendin ko'ngul,  
Vaxki, kun – kundin batarrak muftalo bo'ldim sanga.  
Man qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading,  
Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga.  
Qay pari paykarga dersan telba bo'lding bu sifat,  
Ey pari paykar, ne qilsang qil, manga bo'ldum, sanga.  
Ey ko'ngil, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,  
Yuz balo etmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.  
Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom,  
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.  
G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,  
To Navoiydek asiru benavo bo'ldum sanga.

She'r ifodali o'qilgach, savollar ustida ishlash mumkin bo'ladi:

1. She'rni o'qish natijasida sizda qanday tuyg'ular paydo bo'ldi?She'rda qanday obrazlar mavjud?
2. Birinchi bayt mazmunini qanday izohlash yoki sharhlash mumkin?
3. She'r mavzusini aniqlang. Unga qanday sarlavha qo'yish mumkin deb o'ylaysiz?Qo'ygan sarlavhangizni asoslab bera olasizmi?
4. " Balolig' kun " ifodasini izohlab bering. She'rda yana qanday sifatlashlar qo'llangan?Ular qanday vazifalarni ado etmoqda?

5. She'ning qofiyasi va radiflarini aniqlang. Nima uchun ayni shu so'zlarning qofiyada qo'llanganligini izohlab bering.

6. Baytlar orasida mantiqiy bog'lanish bormi? Uni qanday izohlash mumkin. Baytdan baytga o'tgan sari shoirning ichki kechinmlari tasvirida qanday o'zgarish va yangi qirralar kuzatiladi? Izohlab bering.

7. G'azalda qanday tasvir vositalari qo'llangan? Ular qanday badiiy-estetik vazifalarni bajarmoqda?

8. G'azalning tili, unda qo'llangan so'zlarning emotsional – ekspressiv tomonlari haqida nimalarni ayta olasiz?

Navoiyning mazkur g'azali lirik kayfiyatning o'ziga xos ifodasi sifatida alohida e'tiborga molikdir. Mana shu kayfiyatni tug'dirish uchun she'r ifodali o'qiladi. Ifodali o'qishdan so'ng uning baytma – bayt tahliliga o'tish mumkin.

Ko'rgali husningni zoru muftalo bo'ldum sanga,

Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldim sanga.

Matla'ning birinchi misrasida oshiq ko'ngilning sog'inchli ishtiyoqlari, yorga bo'lgan dil talpinishlari o'z ifodasini topgan bo'lsa, keying misrada shu oshiqlikdan pushaymonlik aks etgan. Bu ohang yorni ilk marta ko'rgan kunga berilayotgan bahoda (ne balolig' kun edikim) mujassamlashgan. Qofiyaga "muftalo" va "oshno" so'zlarining surilish mazkur motivni bo'rttirib ta'svirlashga xizmat qiladi. Misralar oxirida takrorlanayotgan radif – "bo'ldum sanga" mazkur kechinmalarning bevosita so'zlovchi–lirik qahramonga daxldorligini ta'kidlab turadi. Ammo bu yerdagi pushaymonlikning oniy lahzalarga oidligini ham unutmaslik kerak. Keyingi bandlarda undan asar qolmaydi. Aksincha ularda lirik kayfiyatning boshqa qirralari yanada teranroq ochib beriladi.

Endi bevosita lirik qahramonning umumiy holati tasviriga o'tiladi:

Har necha dedimki, kun- kundan uzay sendin ko'ngul,

Vaxki, kun – kundan batarrak muftalo bo'ldim sanga.

Bu yerda ishqiy kechinmalarning o‘ziga xos tasviri mavjud. U inson – lirik qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlarning tadrijini ko‘rsatib bermoqda. Navbatdagi baytda ham shu ruh davom etadi. Endi lirik qahramon va uning nutqi yo‘naltirilgan shaxs - ma’shuqaning o‘z so‘zlari orqali inkishof etish yo‘li tanlanadi:

Man qachon dedim, vafo qilg‘il manga, zulm aylading,  
Sen qachon deding, fido bo‘lg‘il manga, bo‘ldum sanga.

Matla‘da boshlangan men vas en ziddiyati barcha baytlarda davom ettirilgan. Faqat oldingi misralarda bu ziddiyatga kuchli urg‘u tushmagan edi. Ushbu baytda esa ayni shu holatning bo‘rttirib tasvirlanishi kuzatiladi. Bu bejiz emas – navbatdagi baytdan boshlab lirik “ men”ga alohida e‘tibor jalb qilinadi. Tuyg‘ular ifodasi shu baytdan boshlab yanada quyushtiriladi. Lirik qahramon bunga bevosita ma’shuqaga murojaati vositasida erishadi:

Qay pari paykarga dersan telba bo‘lding bu sifat,  
Ey pari paykar, ne qilsang qil, manga bo‘ldum, sanga.

Mazkur murojaat yonida so‘zlar takrori, ular vositasidagi mantiqiy qaytariq lirik qahramon muddaosining to‘la va tasirchan ifodalanishiga xizmat qiladi.

Keyingi baytda ham murojaat qilish usuli qo‘llangan. Biroq, bu murojaat endi yorga emas, balki lirik qahramonning o‘zigadir, o‘z – o‘ziga murojaat shakli sifatida ko‘ngil tanlangan:

Ey ko‘ngil, tarki nasihat ayladim, ovora bo‘l,  
Yuz balo etmaski, men ham bir balo bo‘ldum sanga.

Bu yerda ziddiyat yuz va bir o‘rtasida sodir bo‘lmoqda. Keyingi baytda esa ziddiyatning mantiqiy kuchi yana bir pardaga ko‘tariladi. Odatda, Jomi Jamga musharraf bo‘lgan kishi hech narsaga muhtojlik sezmaydi. Ayniqsa, uning yonida

“Xizr suyi” ham mavjud bo‘lsa, bu endi har narsaga imkon degani bilan barobardir. Shunga qaramay u soqiy huzirida bir gado xolos.

Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom,  
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo‘ldum sanga.

Oxirgi bayt – maqta she’rning o‘ziga xos yakuni sifatida maydonga chiqadi. Shunga ko‘ra u barcha baytlardagi fikr oqimini davom ham ettiradi, ayni paytda ulsrning mantiqiy poyonini ham ko‘rsatadi.

G‘ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,  
To Navoiydek asiru benavo bo‘ldum sanga.

1. Tasavvur qiling, siz akademik litseylarning ikkinchi bosqichida shu g‘azalni tahlil etmoqchisiz. O‘quvchilaringizga qanday savollarni bergan bo‘lar edingiz? Shunday savollardan 6-10 tasini yozma ravishda ko‘rsating.

Akademik litseylarda va kasb – hunar kollejlarida Navoiyning bir qator ruboiy, g‘azal va qit‘alarini o‘rganish asosida o‘quvchilarning klassik she’riyat, lirik qahramon, lirik kechinma, lirik kayfiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va boyitish mumkun bo‘ladi.

O‘quvchilarga she’riy asarni talqin qilishda juda ko‘p yo‘l va usullar borligini, shoirning niyati ko‘pincha tag ma’nolarda yashiringan bo‘lishini, shunga ko‘ra she’rning har doim ko‘p ma’nolilik kasb etishini tushuntirish, ularda manashunga oid ko‘nikma va malakalrni shakllantirish va rivojlantirish kerak bo‘ladi. Misol tariqasida Abdulla Oripovning mashhur she’rini eslatish mumkun:

Bozorga o‘xshaydi aslida dunyo,  
Bozorga o‘xshaydi bunda ham ma’ni.  
Ikisi ichra ham ko‘rmadim also  
Molim yomon degan biror kimsani.



Yoki boshqa bir adibning she'rini ko'rish mumkun:

Dono o'ylar ko'rib nodonni,  
Tabiatdan umr – bir ehson,  
Insonmi shu g'animat onni –  
Qadrlamay sovurgan inson?

Nodon o'ylar ko'rib dononi,  
Tabiatdan umr – bir ehson,  
Insonmi shu g'animat onni –  
Qadrlamay sovurgan inson?

## II BOB

### ADABIYOT DARSLARIDA DRAMATIK ASARLARNI O'RGANISH

Dramatik asarlarga drama, komediya, tragediya (fojea) singari janrlar mansubdir. Bunday asarlarda voqelik asarda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning xatti – harakatlari, nutqlari orqali ochiladi.

Dramatik asarlar sahnaga moslab yozilgan bo'ladi, yozuvchining fikrlari asarda ishtirok etuvchilarning so'zlari va harakatlari vositasida ko'rsatiladi.

Lirik yoki epik asarlarda muallif nuqtai nazari ko'p hollarda ochiqdan – ochiq bildiriladi. Dramatik asarlarda esa ayni mana shu holat mavjud emas. Bu o'quvchilar uchun qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra bu yerdagi munosabatlarning o'ziga xos tarzda aks etishini ularning ongiga, idrokiga yetkazish zarurati bor. Sahna asaridagi har bir harakat va har bir so'zning katta ma'no tashishi o'quvchilar tomonidan anglab yetilishi kerak. Buning uchun tahlil jarayonlarida asarning shu xususiyatlariga asosiy urg'u berishga to'g'ri keladi.

“So'z san'atining asosiy turlaridan biri bo'lgan drama yunoncha so'z bo'lib, harakat, amal – faoliyat degan ma'nolarni bildiradi. Piesa, asosan, sahnada ijro etish uchun mo'ljallangan bo'lib, suhbat – dialog shaklida yoziladi. Unga bayon va tasvirlashga xos usullar yot bo'lganidan, muallif persanajlar xatti – harakatini, hodisalarni bevosita tahlil etish imkoniyatiga ega emas. Bunday vazifalar dialoglar yetakchiligida, monolog, remarka va pauzalar yordamida muayyan vaqt ichida ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan qismatlar shaklida amalga oshiriladi. Har bir voqeaga yo'nalish beriladi. Dramatik asar tanaffuslar bilan ko'rsatilganligi sababli, har qaysi qismi parda deb yuritiladi. Parda ichida ko'rinishlar bo'ladi. Bir kechaga mo'ljallanganligi sababli drama asari hajman cheklangandir”.

Dramatik asarlar kompozitsion tuzilish jihatidan boshqa janrlardagi asarlardan farq qiladi.

Shuning uchun drama janri so'z san'atiga mansub bo'lsa ham, sahnada ijro etilishi bilan roman va qissa janridan farq qiladi. Drama har bir obraz o'z xarakteriga xos xislatlarni jonli tili, xatti – harakati orqali namoyish qiladi. Shunga

ko'ra dramada proza va poeziyaga xos bo'lgan bevosita muallif nutqi bo'lmaydi, balki nutqi qavs ichida izohlanadi. "Nasrchi va nazmchi hikoya qilish, voqealarni izohlash, hodisalarni ifodalash, xarakterlarni tasvirlash yo'lidan borishsa, dramaturg esa so'zlarni harakatga solish, qahramonlarni so'zlatib qo'yib, xarakterlarini ochish usulidan foydalanadi". Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo'layotgan voqea va qahramonlarning o'zidan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonlarining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi.

Dramatik asarlarda ohang, pauza va ovozning baland – pastligi katta ahamiyatga ega bo'lib, nutqning o'ziga xos bu xususiyati sahnada yanada aniqroq ko'rinadi.

Drama adabiyotning gultoji hisoblanadi. Unda dramaturgga nisbatan tashqi voqea – hodisalar, hayotiy masalalar, ishtirok etuvchi shaxsalarni o'z – o'zini namoyon qilish vositasida aks ettiriladi. Har qanday hodisa ham dramatik bo'lavermaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalar bir necha dramatik asarlar bilan tanishib chiqishadi. Ular orasida qadimgi Yunon dramaturglarining lapaqlaridan boshlab, xorijiy mamlakatlardagi adiblar qalamiga mansub bo'lgan sahna asarlarigacha mavjud. Tabiiyki, ularning orasida o'zbek dramalari asosiy o'rin tutadi.

Maqsud Shayxzoda dramaturgiyasi ham shu siraga kiradi. Dramatik asarlarni tahlil qilishda adabiyotshunoslikdagi mavjud tadqiqotlarga tayanish mumkin. Ayniqsa, Izzat Sulton, N.Mallaev, H.Abdusamatov, B.Imomov, I.G'afurov, Sh.Rizaevlarning tadqiqotlari bu jihatdan e'tiborlidir.

Cho'lponning dramaturgiya sohasidagi ilk asarlari 20- yillar arafasida maydonga kelgan bo'lsa – da, ular, shuningdek, 1920- yilda yozilgan "Yorqinoy" dramasi ham kichik sahna asarlari edi. Shuning uchun ham Maskvadagi o'zbek drama studiyasida sahnalashtirish uchun mahalliy mavzudagi asarlarga ehtiyoj tug'ilganida Cho'lpon mazkur piessani qayta ishlab, uni 1926- yilda kitob shaklida nashr etgan.

Piesaga Cho‘lponning quyidagi so‘zlari ilova etilgan: “Totli va boy tili bilan ertak (cho‘pchak) aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo‘lgan KAMPIR ONAga hurmat bilan bag‘ishlayman”.

Bu so‘zlardan ma‘lum bo‘lishicha, “Yorqinoy” piessasi zaminida Cho‘lponning “kampir onasi” dan eshitgan xalq ertagi yotadi. Ayrim manbalarda esa “Yorqinoy” piessasida Andijondagi Po‘latxon qo‘zg‘oloni bilan bog‘liq voqealar aks ettirilgan, degan fikr ham mavjud. Aslida ham, Cho‘lpon yoshligida “kampir onasi” dan Po‘latxon qo‘zg‘aloni haqida ertaknamo voqeani eshitgan va mazkur asarni yaratishda shu ertak voqeadan foydalangan bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina tadqiqotchilar shu fikrni qo‘llab quvvatlashadi.

“Yorqinoy” qisqacha mazmuni quyidagicha :

O‘lmas botir ismli sarkadaning qizi Yorqinoy bilan uning qarorgohida bog‘bonlik qilgan Po‘lat o‘rtasida muhabbat rishtalari bog‘lanadi. Po‘lat bu uyning oddiy xizmatkori, Yorqinoy esa o‘ziga to‘q xonadonning farzandi bo‘lgani uchun bog‘bon yigit o‘z ezgu niyatining amalga oshishiga ko‘zi yetmaganligidan bu xonadondan ketmoqchi bo‘ladi. Kutilmaganda Po‘latni Yorqinoy bilan yolg‘iz uchratib qolgan O‘lmas botir uni nomussizlikda, ko‘rnamaklikda ayblaydi. Bu ham kifoya qilmasdan o‘z qizi Yorqinoyni ham or – nomusni unitib, nomunosib, kambag‘al bechora bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o‘ldirishga tayyor ekanligini aytadi.

Yorqinoy esa haq yo‘lida o‘limdan ham qaytmaydi, shu yo‘lda o‘limga ham tayyor. Shuning uchun ham bo‘ynini egganida Olmas botir “Otang nohaq yerga bir qatra qon to‘kkan emas. Mundan keyin ham to‘kmaydir!” deb mag‘rur javob beradi.

O‘lmas botir va unga o‘xshagan kimsalar uchun haq va haqiqatning talqini bir xil emas: o‘z manfaati uchun haqqa qarash boshqacharoq: bu yo‘lda u odamalrni qirib tashlash, istagancha qon to‘kishni ham joiz hisoblaydi. O‘z manfaatidan kelib chiqqan haq tushunchasi uni o‘zining yolg‘iz qizini jazolash to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga ham undamaydi. Ayni shu paytning o‘zida o‘zgalar uchun haq tushunchasi uni Po‘latni qatl etish uchun izn beraveradi: “Ammo,

davom etadi u Po‘latni ko‘rsatib, - mana bu ko‘rnamakning qoni to‘kilsa, also nohaqlik bo‘lmaydir!” Ana shunday e‘tiqod bilan yashagan O‘lmas botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo‘r sarkarda ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

U bilan juda noqulay ahvolda to‘qnashgan va o‘z sha‘ni, yigitlik or nomusini himoya qilishga majbur bo‘lgan Po‘lat o‘zi va otasi haqidagi aniq ma‘lumotlarni bilishga intiladi. Xuddi shu narsa O‘lmas botirning qahrini yanada kuchaytiradi. Zero, bu vaxshiylik O‘lmas botirning hech kimga ochib berolmaydigan eng daxshatli siri edi.

Cho‘lpon piessasining bu muhim dramatic nuqtalaridan birini bunday ta‘svirlaydi:

“Po‘lat (qaltirab). Botir, pardani ochish zamon kelganga o‘xshaydir. (Ko‘ziga qarab olib.) Mening otam kim?

Botir (bir qurshashib rangi o‘chib oladir, so‘ngra o‘zini to‘xtatib olib, bemalol ). Otang – bir qishloqi!

Po‘lat. Qani o‘sha qishloqi? Nimaga men sizning dargohingizda, sizning non – tuzingizga qarab qolganman?

Botir. O‘zini boqolmagan bir qishloqi seni biti bilan boqsinmi? O‘zi boqolmagandan keyin menga berib ketgan – da! Otang seni Botirning qizi bilan o‘ynashsin, Botirni el – xalq oldida yerga qaratsin! deb qoldirgan edimi? (Qizib) Qani ayt, benomus, gapir!

Po‘lat (qaltirab, Botirning ko‘ziga qarab olib). Uyalmysizmi? Uyalmysizmi? Astaffurulloh... (Bir – ikki qadam orqasiga qaytadir.)

Botir. Men kimning ona qo‘ynidagi qizi bilan o‘ynashibmanki, uyalsam?

Po‘lat (yugurib kelib). U... yong‘oqning tagidagi kimning g‘ori? (Botir cho‘chib orqasiga jiladir, lekin o‘zi jim; Po‘lat brogan sari unliqib.) Bir xandakda necha kishining boshi bor? (Qo‘ynidan bir ro‘molchada mayda suyaklar olib tashlab.) Mana bu suyaklar kimniki? Nimaga yon‘g‘oq tagidagi xandakda chirib ketgan? (Yonidan bir qog‘oz olib.) Mana bu ariza kimniki? (Baqirib.) Kimniki deyman? Ariza berganlar qani? (yerdan suyaklarni olib, Yorqinoyning oldiga tashlaydir). Mana shular emasmi ariza berganlar? Mening otam, akam, tog‘am

yana boshqa qavmu qarindoshlarim shu bir hovuch suyakning ichida emasmi? Gapiring! Nimga damingiz chiqmay ketdi? (Botirning qilichi qo‘lidan tushib ketadir, rangi oppoq oqaradir, kasal odamday bo‘shashib, holsiz turib qoladir. )...

Po‘lat bilan O‘lmas botir oralarida bo‘lib o‘tgan ana shu diologning dramadagi o‘rni juda o‘ziga xos. Ushbu parcha asar qahramonlarining xarakterini ularaning dunyoqarashi, tasavvurlari, bir – birlariga bo‘lagan munosabatlarini ham oydinlashtiradi. Ana shu voqealar tufayli otasining qanday inson ekanligini bilib oladi. Bunga Po‘latning so‘zlari imkon beradi.

Yorqinoyning Po‘lat tomonga to‘la “o‘tib ketishi” ham mana shu sahna ko‘rinishi bilan asoslanadi.

Yozuvchi bu hayotiy haqiqatga badiiy tasvir orqali bizni ishontira oladi:

“Yorqinoy ( qaltirab). Ota, ota deymen! Bu nima gap? Bu nima? Bu qanday gap? (Botir jim.) Po‘lat, sen aytib ber, bu nima gap? Men o‘laman. Men chidayolmayman. Bu qanaday sir?

Po‘lat (o‘zini bosib olib, bo‘shashibroq). Bu sirlarning tagini otangizdan so‘rang. “Ota – ona, qavmu qarindoshlarini bir umr ko‘rmagan, ularning shirin gaplarini eshitmagan, o‘zlarini ko‘rish o‘rniga bir xalta chirigan suyaklariga ega bo‘lgan kishi o‘sha suyaklarni chiritgan dargohda tura olmaydir. Amakingizga qizini bermagani uchun xonavayron bo‘lgan bir qishloqi, o‘sha qishloqini “haq” degani uchun yer bilan yakson qilgan qishloq... Yana mendek baxti qora o‘g‘lini shu dargohga bir umrlik qul qilib beribdir! Men mana shu to‘rt og‘iz gapni sizga aytib qo‘yib, shu dargohdan butkul bosh olib ketmakchi edim...Oyim poshsho, menga non – tuz berdi, deb otangizdan halollik so‘ramayman. Nimaga desangiz, har bir tishlagan nonim – ota – onalarimning bir burda eti, har bir qatra tatigan tuzim – ularning ko‘z yoshlari, balki qonlari bilan to‘lgan ekan”.

Bu yerda endi dramaning boshqa bir imkoniyatidan foydalanilmoqda. Uning nomini biz monolog deymiz. Monolog – bitta qahramonning nutqi. Ammo u o‘z yo‘nalishiga ko‘ra xilma – xil bo‘lishi mumkin. Ba‘zan, u qahramonning xatti – harakatlarini, o‘y – kechinmalarini asoslash uchun xizmat qilsa, ayrim holatlarda boshqa qahramonlar bilan munosabatlarini oydinlashtirish uchun bo‘ysundiriladi.

Bu yerdagi monolog esa O‘lmas botir qarorgohida sodir bo‘lgan daxshatli voqealarning ildizini ochishga qaratilgan. Bu yerda mantiqan bir mohiyatga ega bo‘lgan hodisaga ikki xil qarash, ikki xil nuqtai nazarning o‘zagi ko‘rsatib berilmoqda. Aslida, Po‘latning otasi, akasi, tog‘asi, hatto butun urug‘ – aymoqlari O‘lmas botirning amakisiga qizini bermagani uchun o‘ldirib tashlagan.

Po‘latning nutqi mana shu haqsizlikka qarshi isyon tarzida namoyon bo‘ladi. Ayni shu diolog Yorqinoyni ham shunday – tengsizlikka, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi Po‘latning yonida birgalikda bosh ko‘targanligini asoslash uchun xizmat qilgan.

Dramatik asarning sahnadagi ijrosi alohida ahamiyatga ega. Teatrda dramatik asarning qo‘yilishini kuzatish behad katta ta‘sir kuchiga ega. Albatta, bunda aktyorlarning mahorati ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hamid Olimjonning yozishicha:

“Uyg‘ur “Gamlet” ni sahnaga qo‘ydi. Abror Hidoyatov Gamlet rolini, keyin esa Otello rolini, Sora Eshonto‘rayeva Ofeliya rolini, keyin esa Dezdemona rolini ijro etdi. Sehrli dramaturg Shekspirning piessalari hammani ilhomlantirib yubordi. Spektakl katta muvaffaqiyat qozondi. “Gamlet“ surunkasiga 22 kun qo‘yildi. Abror Hidoyatovning dublyori yo‘q edi. Shekspir piessalarining sehrli kuchi Abror Hidoyatovni horg‘inlikka e‘tibor bermaslikka majbur etardi. U jazavaga tushib o‘ynardi. Spektakllardan birida Gamlet sahnada behush bo‘lib yiqildi. Abror kasal bo‘lib qoldi. Uzoq vaqtgacha xalq artisti sahnaga chiqolmadi”. Demak, o‘quvchilarga imkoniyati boricha dramatik asarlarning bevosita ijrosi bilan tanishtirish, hech bo‘lmaganda, uning radiopastanovkasi yoki tele yoki video nusxalaridan parchalar ko‘rsatish ularning mazkur asarlarni anglash va his qilish jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Dramatik asarlarda konflikt alohida urg‘u bilan namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tahlil jarayonida asardagi asosiy konfliktning namoyon bo‘lishiga e‘tibor berish shartdir. Masalan, “Padarkush” da ziyoli bilan boy o‘rtasidagi ziddiyat ham mavjud. Bu ziddiyat boy bilan domulla orasida ham mavjud. Muallif ikki tamonning o‘ziga xos dunyoqarashi, o‘y – fikrlari, maqsad – muddaolarini bir –

birlariga qarama – qarshi qo‘ygan holda tasvirlaydi. Ziyoli va Domullo ezgulikning, yangilikning targ‘ibotchisi va muxlisi sifatida ko‘rinsa, Boy eskilikka mukkasidan ketgan, yangilanish va o‘zgarishlarga nisbatan beparvo, hatto dushman maqomida tasvirlanadi. Ikki obrazda yurt qayg‘usi, el – yurt tashvishi, uning kelajagi uchun qayg‘urayotgan kishilar ko‘rsatilsa, Boy qiyofasida o‘zining tor, biqiq dunyosidan tashqarini ko‘ra olmaydigan, manfaatparast va johil shaxs namoyon bo‘ladi. Asarda ilm va ilmsizlik, ma‘rifat va jaholat orasidagi ziddiyat ham yorqin ko‘rsatib berilgan.

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” dramasiidagi ziddiyatlarning namoyon bo‘lishi ham o‘ziga xosdir. Bir qarashda u mutafakkir ota va mansabparast o‘g‘il orasida sodir bo‘layotagandek ko‘rinadi. Aslida esa u shaxs bilan zamon, alohida shaxs va ijtimoiy tuzum orasidagi ziddiyatlarga tayanadi. Eng muhim va bo‘rtib ko‘rinadigan ziddiyatlar Ulug‘bek bilan uning o‘g‘li Abdullatif, Ulug‘bek bilan Gavharshodbegim, Ulug‘bek bilan Said Obid, Ulug‘bek bilan Piri Zindoniy orasida ko‘zga tashlanadi. Bu ziddiyatlarda aql – idrok va jaholat, ezgulik va qabohat, bag‘rikenglik va mansabparastlik, donolik va johillik singari bir – biriga zid bo‘lgan fazilat va nuqsonlar ham o‘zaro bir maydonga tushiriladi. Ular orasidagi bahsu munozaralar, keskin kurashlar orqali chuqur hayotiy mantiq va xulosalar yorqin namoyon bo‘ladi.

Dramatik asarlarning o‘rganilishida ularning tiliga alohida e‘tibor berish kerak bo‘ladi. Yirik adabiyotshunos olim va dramaturg Izzat Sulton aytganiday: “Kishi roman o‘qir ekan, unda tushunilmagan so‘z ustida o‘ylash, uning ma‘nosini esga olish yoki lug‘atlardan qarab topish imkoniyati bor. Tomoshobin bunday imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli sahnada aytilgan so‘z tushunarli bo‘lishi shart”.

Dramatik asarlarni tahlil qilishda asardagi qahramonlarning harakati, bir – birlariga munosabatigina emas, balki undagi har bir so‘z, har bir ishora ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra uni tahlil qilishda muallif remarkasidan boshlab, qahramonlarning bir – biri haqidagi fikrlari, ularning o‘z so‘zlari, muallif qo‘llagan tasvir vositalarining barchasi, til imkoniyatlari ham hisobga olinishi



kerak. Buni ixcham namunasini “Yorqinoy” dramasi misolida shunday ko‘rsatish mumkin:

“Yorqinoy” dramasidagi Po‘lat obraziga tavsif:

Muallif remarkasi	Po‘lat haqida bosh - qalar	Nutqidan namunalar	Maqol va obrazli ifodalar	Po‘lat nutqi uchun xos bo‘lgan so‘zlar
<p>Po‘lat – bog‘bon yigit, 30 –35larda. O‘lmas botirning qo‘rg‘on bog‘chasida o‘rik daraxtlarining tagi. To‘rda-o‘rikzordan so‘ng olmazor, uning orqasida uzun – uzun sargad (ishkom)lar. Ko‘klam boshlari: hamma daraxtlarning yaproqlari ko‘m – ko‘k toza, gullar chaman – chaman bo‘lib ochil – ganlar. Vaqt yarim kechaga aqinlashgan, daraxtlarning orasidan oydinlik tushadir, yiroqlar sutdek oydin. Og‘ir va sirli jimlik. Bir gilamcha, bir sher terisi – po‘stak bilan ikkitta yastiq ko‘tarib</p>	<p>Qumri: Bilaman, bilaman, kimni sevganingizni ham bilaman. Kim uchun ko‘z yosh to‘kka – ningizni ham bilan – man. Siz sevgan – go‘zalning siz uchun ko‘z yoshi to‘kib yurganini ham bila – man. Siz sevgan go‘zalning o‘zing – izga teng bo‘lma – ganini, shu uchun unga yeta olmasli – gingizni, menga o‘xshagan noumid bo‘lganingizni ham bilaman.</p> <p>Momo: Po‘lat bo‘lsa o‘z gavdasidan boshqa hech narsasi yo‘q bir bog‘bon, bir yalangoyoq.</p> <p>Botir: Benomus, ko‘rnamak! Gapir deyman senga</p>	<p>...men bilmadimkim, yarim kechada bu taraq – turuq nima uchun va kim uchun bo‘l – sa? Yo‘q, men o‘z sharmandaligimni sira o‘ylamay – man, lekin uning sharmanda bo‘lishidan juda yomon qo‘rqa – man. Unga tariq – day bir gap tegsa, xafa bo‘laman.</p> <p>- Sevsada, sev – sada ... U – osmonda men yerda. U meni o‘ylaydir, men tog‘u toshlarni ... Men toju – taxt o‘g‘rilari bilan mardlarcha oli – shib turgan bir yigitman.</p>	<p>Unga tariqday bir gap tegsa, xafa bo‘la – man. O‘lmas botir ishni buzub qo‘ydi – da. Bek bilan bo‘y o‘lchashmoqchi bo‘lgan boy.</p>	<p>Poshsham, Ota, otajon, xudoga shukur. Biz qo‘limizdan kelganini qildik.</p>

<p>Po‘lat chiqar, sodda – xizmatkorlarcha ki – yingan. Belida yolg‘iz bog‘bon pichog‘i osilgan.</p>	<p>behayo!.. Men sening mardligingni bilganim uchun sen bilan maydonda uchrashganimga juda xursand edim. Shu uchun urushda Bir martaba ham xiyla ishlatmadim, Hamma vaqt senga hurmat bilan urush qildim.</p> <p>Yorqin:Mana shunday toza qi – lichlar, mana bu Bekga o‘xshagan noinsof zolimlarga emas, o‘sha Po‘lat bo – tirga o‘xshagan insofli, haq yo‘lida tortishib yotgan azamatlarga kelishadir.</p>			
---	--	--	--	--

Dramatik asarlar mohiyatini yaxshi anglash uchun matn ustida ishlash katta yordam beradi. Ayniqsa, ifodali o‘qish, sharhli o‘qishning katta. Bunda muallif ko‘zda tutgan ma‘noning yuzaga chiqarilishiga imkoniyat paydo bo‘ladi. O‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatib, o‘quvchilarini shu yo‘nalishga boshlasa, asar mantig‘idagi bosh ma‘noning anglanishi osonlashadi. Sharh va izohlar esa shu mantiqning tarkibiy qismlarini ko‘rsatishga qaratilishi kerak.

Dramatik asarlarni tushunishdagi yengillikni ta'minlaydigan yana bir qadam asarni ro'llarga bo'lib o'qish bilan aloqador. Ammo bu ham o'z –o'zicha, osonlik bilan amalga oshmaydi. Rollarga bo'lib o'qish uchun ham jiddiy tayyorgarlik kerak. Zero, har bir asar qahramonining o'ziga xos xususiyatlari, uning ruhiyatidagi mavjud holat teran ilg'anishi, ularning har biriga xos bo'lgan xatti – harakat va ovozning tezligi, baland - pastligi ham ahamiyatli bo'ladi. Ularning asarda tasvirlanayotgan voqea va xarakterlarga aloqadorligi o'qish shaklidan oq sezilib turishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayonlarda o'quvchilarning muallif g'oyalarini tushunishi, muallif bilan birgalikda kashf etib borishi keak bo'ladi.

Biz “ Yorqinoy” misolida mulohaza yuritadigan bo'lsak, dastlabki parda bilan tanishishdan keyin o'quvchilarga shunday savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin:

1. Birinchi pardada biz naimalarni ko'rdik?Uning ishtirokchilari kimlar?
2. Ishtirokchilarning kiyimlarida qanday o'ziga xosliklar bor?
3. Biz sahnadagi ishtirokchilar, ularning kiyimlari, qiyofalari, yoshi, xarakteri haqidagi ma'lumotlarni qayerdan va qanday bilib oldik?
4. Qumri va Po'lat nutqlaridan ayrim namunalarni o'qing. Ularda ifodalanayotgan asosiy mohiyat nimada deb o'ylaysiz?
5. Qahramonlarning bir – birlariga bo'lgan munosabatlarida qanday ohanglar ustivor? Ular qanday ifodalanayapti? Bu munosabatlarning anglanishida muallif remarkalarining o'rnini tushuntirib bera olasizmi?

O'quvchilarga asarning sahnadagi ko'rinishini tasavvur ettirish ham uning mohiyatini teranroq ilg'ash yo'llaridan biridir. Buning uchun o'quvchilarga “Yorqinoy” dramasidagi birorta ko'rinish uchun sahna bezaklarini tanlashni tavsiya etish mumkin. Turli o'quvchilar bunda bir necha variantni tavsiya qila oladilar. Butun sinf bilan har bir tavsiyani muhokama qilish, ularning qaysi biri asar ruhiyatiga ko'proq darajada mos holatlarni topganligini belgilash o'quvchilardagi mustaqil va ijodiy fikrlashni, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishini ta'minlaydi, muhimi ularning asar g'oyasini chuqurroq anglab yetishlariga zamin hozirlaydi.

O‘ninchi majlis voqealarini olib ko‘raylik. Bu yerda O‘lmas botir bilan Po‘latning yuzma – yuz suhbatlari beriladi. Aslida, dramaning eng o‘tkir ko‘rinishlaridan biri ham shu yerda. U yerda g‘oyalar kurashi, mafkuralar kurashi, shaxslar kurashi, ular orasidagi ziddiyat o‘zining butun qamrov va mantig‘i bilan namoyon bo‘lgan. Sujet nuqtai nazaridan voqealarning voqealarning kulminatsion nuqtasi ham shu yerda. Parcha bilan tanishib, o‘quvchilarga shunday savollar berish mumkin bo‘ladi?

1. O‘lmas botirning kelganligi haqidagi xabarni Po‘lat qanday qabul qildi?

2. Po‘latning shu holatdagi monologida uning kayfiyati va qarashlari qanday ifodalangan?

3. O‘lmas botirning,, Po‘lat, xozir sen bilan bizga dunyoda hech bir maxram, do‘st, ota-ona demasdan, yolg‘iz gaplashaturgan vaqt kelib qoldi’’, degan gaplarni Po‘lat qanday qabul qildi? Shu manzaradagi O‘lmas va Po‘latlarning holatiga qanday baho berasiz?

Shu tarzda asar matni ustida ishlash asnosida voqealarning rivojlanib boorish xususiyatlari ham izohlanadi, tushuntiriladi.

Bunday mulohazalar asarning mazmunini teran anglatadi, o‘quvchilarni rollarga bo‘lib o‘qishga tayyorlaydi. Shundan keyingina biz alohida obrazlarning tavsifiga o‘tishimiz mumkun bo‘ladi.

Asardagi ishtirokchilarning har biri bilan tanishgan o‘quvchi, ularning o‘ziga xosliklari yozuvchi mahorati tufayli yuzaga chiqqanligini xis etishi kerak.

Birgina O‘lmas obrazini olib ko‘raylik. Asar davomida uni xilma-xil ko‘rinishlarda uchratamiz. U vaziyat va sharoitga qarab o‘zini turlicha tutadi.

Bularning barchasi uning nutqida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Asarni tahlil qilish jarayonida O‘lmasning botirligi o‘z farzandi uchun fidokor ota ekanligi, maqsadiga erishish yo‘lida hech narsadan (hatto odam o‘ldirishdan ham) qaytmasligi, ayni paytda nodon va jaholotga botganligi ham ko‘rinib qoladi. Bunday holatlarning barchasida qahramon nutqi tegishli uslubiy rang-baranglik va tasvir vositalari orqali namoyish etiladi. O‘quvchilarga O‘lmas botirning nutqiga tavsif berish vazifasini topshirish mumkun.

O'lmas botir asarning birinchi pardaning oxirgi-uchinchi majlisida paydo bo'ladi. Uning nutqi dashnom va nafrat to'la holda ko'rinadi:

(Botir tashqaridan baqirib kelar). Xoy beorlar, benomuslar! (Tez kirib kelib bir to'xtab oladir-da, so'ng birdan Po'latga hamla qilib) Benomus, ko'rnamak!).

Po'latning keskin savollaridan keyin esa u birdaniga o'zgardi:

(Botir (og'ir) Po'lat, senga nima deyishni bilmayman... Menga muncha qattiq davolaring bor ekan. O'zimga xilvat qilib turib aytsang bo'lmasmidi?)

Shundan keyin uni beshinch pardada ko'ramiz. U yolg'on xabarlarga ishonib kelgan holatda namoyon bo'ladi. O'z farzandi uchun hayotini taxlika ostiga qo'yib bo'lsa-da, Po'latning xuzuriga keladi. Hatto mahramini ham tashqarida qoldirib, Po'latning xuzuriga yolg'iz bir o'zi kiradi. Mana shu sahnada Botirning nutqidan uning Po'latga, qiziga, o'ziga, boshqalarga bo'lgan munosabatlarni atroflicha ilg'ab olish mumkin.

Uning Po'lat haqida aytgan gaplari Botirning ota sifatidagi, qo'shin boshlig'i sifatidagi xislatlarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Botirning o'z qizi haqida aytgan gaplari ham ichki qarama-qarshiliklarga to'la. Bir tomondan u qizni qoralaydi, ayniqsa, Po'latday yomon bir dushmanning oldiga shu kunga qolgani uchun unga dashnomlar yog'diradi, ayni paytda ota sifatida, o'z farzandi uchun butun umri, kuchi, mexrini bergan ota sifatida quyidagi so'zlarni ham aytadi:

Botir. Qizimni tanimasam – tanimasman, uning ko'nglini bilmasam-bilmasman... Lekin uni sevaman, u uchun har narsadan kechaman!

Xuddi shu tarzda O'lmas botirning ichki ma'naviy olami Po'lat bilan bo'lgan suhbatda atroflicha ochiladi. "Hunari – go'rkovnikidan yomon"

(Yorqinoy) O'lmasning ota sifatida mutlaqo boshqacha odam ekanligi ko'rinadi.

Beshinchi parda oxirida O'lmas mana bu mulohazalar uning yana bir yangi qirrasini: mardlarcha tan ola bilishni, samimiy e'tirof egasi bo'la bilishini ham tasdiqlaydi:

Botir (Po‘latga qarab samimiy). Po‘lat, kechir meni! Sening bilan olishib bo‘ldim! Xozir Nishobsoyga jo‘nayman, qizni o‘zi o‘g‘irlatib, senga tonkagan bekni bola-chaqa, avlodi bilan tilka-tilka qilaman! Nomussiz saroy, hamiyatsiz saroy, toju taxt lozim bo‘lsa, o‘zi saqlab olsin. (Tez chiqadir ).

Drama sujeti o‘zining rivojlanish tezligi va g‘oyat siqqligi bilan harakterlidir. Dramatik asar sujeti o‘ziga xos bu xususiyati bilan nasriy asar sujetidan farq qiladi.

Shuningdek, dramatik asar nasriy va lirik asardan teatr uchun yoziladiganligi va sahnada ijro etilishi bilan farq qiladi.

Dramatik asar sujeti hayotiy qarama-qarshiliklar asosida quriladi, hayotiy kurashlarni aks ettirish o‘ringa qo‘yiladi.

Yuqorida qayd qilingan xususiyatlariga qarab maktabda dramatik asarni o‘rganish usullari belgilanadi.

Dramatik asarni o‘rganishda o‘quvchining kirish so‘zidan keyin, nasriy asarlarni o‘rganishda bo‘lgani kabi, u sinfda va uyda o‘qiladi, so‘ngra matn ustida ish olib boriladi. O‘zbek adabiyotining atoqli vakili Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojaviy asari endilikda o‘rta maktab adabiyot dasturidan mustahkam o‘rin olgan asarlardan biri bo‘lib qoldi.

Tragediya qahramonlarning ilojisiz vaziyatdagi og‘ir kolliziyalari (qarama-qarshi kuchlarning murosasiz kurashlari) asosida oqibati fojia bilan tugaydigan dramatik janr hisoblanadi. Demak, fojaviy asar ayovsiz kurash, o‘tkir ziddiyat, favqulodda keskin qarama-qarshilik zamini bo‘lgan asardir. Unda xarakter va ehtirolarning kurashi aks etadi, yirik tarixiy fojialar, davrlarning almashinuvi kabi ulkan hodisalar tasvirlanadi.

“Tragediya, - deydi V. G. Belinskiy, - dramatik poeziyaning oliy bosqichi va gultojidir. Shuning uchun ham tragediya dramatik poeziyaning butun mohiyatini o‘z ichiga oladi, uning hamma elementlarini qamraydi. Tragediyaning mohiyati kolliziya, ya’ni qalbning tabiiy, jarayoni, maylning axloqiy burch yoki daf qilinmas bir to‘siqlik bilan to‘qnashuvidir.”

Yuqorida ta'kidlanganidek, fojia ana shu xususiyatlari bilan drama va komediyadan farq qiladi. o'zbek adabiyotida fojining yorqin namunasi Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" asaridir.

Shayxzoda ushbu asarda bosh qahramon – Ulug'bek bilan «daf qilinmas» qora kuchlar o'rtasidagi murosasiz kurash, ziddiyat va bu tengsiz kurashda Ulug'bekning fojiali qurbon bo'lishini aks ettirdi.

Tabiiyki, asarda tasvirlangan murakkab voqealarni o'rganish maxsus tayyorgarlikni – fojia matnini jiddiy e'tibor bilan o'qib chiqishni, obrazlarni guruhlashni, tanqidiy adabiy asarlardan foydalangan holda tarixiy va to'qima obrazlarni aniqlashni, asar muallifining san'atkorlik mahoratini belgilashni talab etadi. Namuna sifatida o'qituvchi ma'ruzasi matnini keltiramiz:

Maqsud Shayxzoda fojia janridagi "Mirzo Ulug'bek" asarida Amir Temurning nabirasi, Shoxruxning o'g'li Ulug'bekning shohlik va olimlik faoliyatini, unga xos shaxsiy xislatlarni hayotiy haqiqatlar asosida, XV asr birinchi yarmidagi ijtimoiy – siyosiy hayotda davom etgan ziddiyatlarga bog'liq holda tasvirladi, Ulug'bek qurbon bo'lganini ko'rsatdi.

Asarda Ulug'bekning olimlik xislati o'z shogirdi Ali Qushchi bilan qilgan suhbatlari, oy tutilishi xususida qilgan bahslari, tabiatda yuz beradigan hodisalarning siri, ularning qonuniyatini ochish haqidagi fikr yuritishlarida ochiladi. Uning shohlik faoliyati Toshkentga hujum qilgan qipchoqlarga qarshi kurashi orqali ko'rsatiladi. Ana shu voqea ta'sirida Ulug'bekda ichki ruhiy iztirob, dard, alam kuchayadi. Buni biz Ali Qushchiga : "Oh azizim, shu serxatlar yirtqich zamon senu menga ilmu fanga fursat qayoqda?"- deb aytgan so'zlarida ko'ramiz.

Ulug'bek adolatli hukmdor sifatida ish yuritadi, mamlakatda osoyishtalik bo'lishi uchun harakat qiladi, ilm-ma'rifat rivojiga, xalqni undan bahramand qilishga e'tibor beradi. U o'z mehnatining natijasini ko'rishni orzu qiladi. Maqsud Shayxzoda Ulug'bekning bu orzu – umidlarini ichki monologi orqali ochadi:

Qirq yil bo‘ldi koinotning kitobin o‘qib,  
Ma‘rifatning dargohiga qo‘ydim ixlosim.  
Og‘ir bo‘ldi qismat menga ortgan vazifa,  
Men, sultonlar o‘rtasida bo‘ldim donishmand.  
Donishmandlar tepasida sulton sanalдим,  
Ma‘rifatni hukumatga qilib rahnamo,  
Bu o‘lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim.  
Insonlarga aytib turdim: boqdin samoga,  
Qancha toza va musaffo, farahbaxsh, zebo.  
Ey, odamzod, ibrat olgan yulduzlardan sen  
Xayrixohlik va balandlik xislatlaridan.  
Shaltoqlarda ag‘namagin, ko‘taril, yuksal,  
So‘qir baxtdan ko‘rar ko‘zli baxtsizlik afzal.  
Eh, saodatlar yaratilmas buyruqlar bilan,  
Zehnlarga nur urug‘in sepdim muttasil,  
Katta hosil kutmoqdaman, nuroniy hosil!

Ulug‘bek haqiqatgo‘y, qat‘iy so‘zli bo‘lib, inson degan nomni ulug‘lagan, xotin-qizlarga hurmat ehtirom saqlagan shoh edi. Undagi bu oliy fazilatlar onasi Gavharshodbegim bilan uchrashganda namoyon bo‘ladi. Onasi bilan uchrashgan payt tasvirlangan lavhada Ulug‘bek o‘ziga hayot baxsh etgan ulug‘ zot–onasidan minnatdor bo‘lgan, onalik haqqini hamisha o‘z gardanida his etgan yuksak qalbli inson bo‘lganini ko‘ramiz.

Ulug‘bek Feruzani qalbdan sevadi. Uning haqida Abdulfatif tarqatgan gaplarni ig‘vo deb biladi. Ammo, onasi Gavharshodbegimdan ham bu xunuk xabarni eshitgach, Ulug‘bekda shubha kuchayadi. Lekin, shunda ham u o‘zini dadil tutishga harakat qiladi, haqiqatning tantana bo‘lganini ko‘ramiz. Dramaturg Shayxzoda Feruza voqeasi bilan Ulug‘bekda paydo bo‘lgan iztirob, ruhiy kechinmalarni shunday tasvirlaydi:

Ko‘p g‘alati zamonda yashar ekanman,  
Qalbidagi haroratni insonga berib,



Evaziga olmoqdaman sovuq g'arazlar.  
Men otamga, jannatmakon Shohruh Mirzoga  
Kamarbasta o'g'il bo'ldim qirq yil muttasil.  
Ammo shuni o'g'illardan ko'rmadim, hayhot!  
Abdulaziz fikri zaif, jismi nogiron.  
Abdulatif- jisman tetik, xulqi xatarli.  
Bu-ku mayli! Onalarning ikrom- izzatin  
Umr bo'yi talqin etdim ahli vatanga.  
O'z onamga ehtiromim evaziga men  
Ne eshitdim! Zug'um bilan ta'na, arazlar.  
Bu ham mayli! Feruzaning sha'niga g'iybat!  
Yoki uning biron aybi bormikan bunda!  
Yoki osmon kitobini varaqlab ochib,  
Sirlarini o'rganmoqchi bo'lganim uchun  
Falak mendan qasos olishga tushgan!  
Yo'q, tushmagin vasvasaga, Mirzo Ulug'bek!  
Shubha- boshqa, dalil- boshqa, xulosa- boshqa!  
Vasvasalar shaytonga xos, umid – insonga.

Bu satrlarda Ulug'bekning faqat ruhiy iztirobi emas, balki o'zi bilan zamon o'rtasidagi ziddiyat, o'g'li Abdulatifdan noroziligi, Feruzaning pokligiga, haqiqatning g'alaba qilishga ishonchi ham o'z ifodasini topgan.

Ulug'bek kamtar, mehnat ahllariga mehribon shoh. Undagi bu fazilatlar Samarqand atrofida ov qilib qaytib kelayotganda dehqon Otamurodga bo'lgan samimiy munosabatida ko'rsatilgan. Ulug'bek dehqonga zulm qilgani uchun Abdulatifni taxt merosxo'rligidan mahrum etadi, uni Balxga hokim qilib tayinlaydi.

Ulug'bek Abdulatifning zimdan ish ko'rsatayotganini sezgach va u ko'rsatayotgan qarshilik keskin tus olayotganini ko'rgach, ruhan eziladi.

Ayniqsa, Feruza haqida Abdulatif to‘qigan ig‘vo, tuhmat Ulug‘bekning qalbiga qattiq ta’sir qiladi.

Ulug‘bek bilan Abdulatif va uning atrofdagilar o‘rtasidagi qarama-qarshilik, umuman u bilan zamon o‘rtasidagi ziddiyat zindonda yotgan Piri Zindoniy bilan uchrashish lavhasida ham ochiladi, shu erda u o‘zini fojiaga olib kelgan ziddiyatlarning sababini anglab oladi.

Voqealar so‘ngida Ulug‘bek Abdulatifning munofiq, taxtparast ig‘vogar bo‘lib yetishganiga, uning shunday bo‘lishiga saroydagi muhit sabab bo‘lganiga qat’iy ishonch hosil qiladi. U dushman tomonidan shaharning qurshab olinishidan, xalqning och qolishi, noroziligining kuchayishidan dushmanning elchi yuborib taslim bo‘lishini talab etishidan azob chekadi, orzu –umidlari, ezgu niyatlari amalga oshmasligini his qiladi. Shayxzoda undagi ana shu ruhiy azobni o‘z do‘stlariga aytgan so‘zlari orqali yoritadi:

Hammingizning ra’yingizni tingladim, do‘stlar,

Hammingizga astoydil arzi – tashakkur!

Bilamanki, gaplaringiz vijdon sadosi,

Do‘stlik bilan sadoqatning qayg‘usi, xolos.

Yolg‘iz qolib bu pandlarni tortib ko‘raman

Tafakkurning g‘oyat hassos tarozusida.

Endi ruxsat, hammangizga – xayrli kecha.

Men u bilan shu tundayoq, kengashmoqchiman!

Ulug‘bek tunda Amir Temurning qabriga kelib, o‘g‘li Abdulatifning qabih ishlarini, boshiga tushayotgan kulfatlarni, podsholik va olim sifatida qilgan ishlarning oqibati fojiali bo‘layotganini izhor etadi va bobosidan madad so‘rab, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishni iltimos qiladi:

Bu kulfatli zamonda bergin maslahat,

Tag‘in lashkar, tag‘in jangu, yaroq-aslaha!

Oxiratga qadar shumi sultonlar ishi?. .  
Turkistonda garchi menga teng keladigan  
Mergan yo'g'u, ammo urush ta'bimga yoqmas.  
Jang, ma'raka, odam qirish, safarda yurish. .  
Sening sevgan nabirangga, menga iztirob,  
Bobo Temur, bu jumboqqa o'zing ber javob:  
Shohlar burchi yashatmoqchimi yoki o'limmi?  
Quvvat nima ? Muruvvatmi yoki zulmni:

Shayxzoda ushbu satrlarda Ulug'bekning ma'naviyatini, tarixning sirli muammolari qarshisida lol qolgan ulug' insonning ruhiy fojiasini tasvirlagan, ulug' shoh fojiasining eng yuqori nuqtasini ana shu lavhada ifodalangan.

Ulug'bek Piri Zindoniy timsolida xalq kurashchilarini ko'radi. U shoh sifatida umri tugaganligiga ishonch hosil qilsa-da, olim sifatida samarali mehnat qilganini his etadi, shu fazilati tufayli nomining mangu qolishiga ishonadi.

Ulug'bek bobosi Amir Temur va otasi Shohruh qabrlari yonida fojiali hayotiga shunday yakun yasaydi:

Uxlang, uxlang shum dunyoning betinch shohlari,  
Siz pashshadan ham beozor yotibsiz bunda,  
Faqat goho kirasizlar tushlarga tunda,  
Yotasizlar yangi-yangi qo'shinlar kutib,  
Shahringizga ular kelar vaqtida etib. .  
Shohlar umri puchligiga bu isbot tugal.  
Tiriklikning ro'yxatidan, kim bilar, bu gal-  
Qay birini o'chirarkan kotibi azal.  
Kim biladi, balki navbat menga etgandir,  
Chunki umrim ozi qolib, ko'pi ketgandir.  
Yo'q, yo'q, sulton o'lsa hamki donishmand yashar,  
Olimlarga mangu hayot tarixi – bashar.

Ulug‘bek o‘z orzulari amalga oshadigan, baxtli zamon bunyod bo‘lishiga ishonadi, shu fikr- o‘ylari unga taskin beradi.

O‘tib ketar bu dahshatlar, bu ma‘rakalar,  
Urush, vabo va jaholat o‘tib ketadi.  
Oh, naqadar saodatli bo‘lur dunyomiz,  
Va naqadar aziz bo‘lur erkin odamzod.  
Bu jahonda birodarlar qolur-ku, oxir,  
Bir so‘zimiz yo izimiz. U oydin elda,  
Zora meni va bizlarni eslasalar bas!  
Shunday do‘stlar. Ammo, hanuz sulton ekanman,  
Saltanatning muhri mening qo‘limda ekan,  
Buyurishga hali borkan salohiyatim,  
Bu mansabda qilib qo‘yay so‘nggi yaxshilik.

Bu monologda Ulug‘bek insonparvarligi, ilg‘or g‘oyalarga sodiqligi ifodalangan. Ulug‘bek insonlarga so‘nggi marta yaxshilik qilish niyatida Piri Zindoniyni zindondan ozod qilishga farmon beradi, Feruzani o‘ziga qayta nikohlab oladi.

Ulug‘bek bir guruh fitnachilar tomonidan qatl etiladi. Bu shum xabarni eshitgan, umrida hech ko‘z yoshi to‘kmagan Piri Zindoniy ham yig‘lab, qattiq qayg‘uradi.

Men yig‘layman, yurak qoni bilan yig‘layman!  
Etim qolgan el dardida kuyib yig‘layman!  
Bosh qo‘yaman tuprog‘iga ulug‘ insonning!

Dramaturg Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug‘bek» asarida hayotiy fojiani tasvirladi. U bizlarda insoniyat, kelajak avlod uchun ilm-fan ravnaqi yo‘lida

xizmat qilgan, fazo haqidagi fanga asos solgan ulug' inson Ulug'bekka nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otdi. Biz «Mirzo Ulug'bek» fojiasini o'qir ekanmiz, qalbimizda Vatanimiz, xalqimiz tarbiyalab yetishtirgan Ulug'bekdek allomalar bilan faxrlanish tuyg'usi jo'sh uradi.

Umuman, dramatik asarlarni o'rganishda pardalar orasidagi bog'lanishlarga, har bir pardaga xos bo'lgan voqealar rivojiga, mana shu jarayonlarda alohida olingan persanajlar xarakteridagi o'zgarishlar va rivojlanishlar darajasiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Bunda ularning tiliga, bir – birlariga munosabatlariga, shu munosabatlarning ifoda tarziga ham diqqatni qaratish shart.

Adabiyot darslarida dramatik turlarni o'rganishda yana bir holatga alohida e'tibor berish lozim. Umumta'lim maktablarining qaysi sinfida bo'lishidan qat'iy nazar, u yoki bu dramani o'tayotganda uning sahna talqiniga ham e'tibor berish zarur. Agar drama maktablarning dasturiga, darsliklarga kiritilgan bo'lsa, asar sahnalashtirilib biror teatrda namoyish etilayotgan bo'lsa, o'quvchilar ko'pchiligi bilan mazkur asarni teatrda tamosho qilishni uyushtirish lozim. Ushbu asar o'tilayotganda asarning sahna talqini bilan asar matni solishtirib o'rganilsa, o'quvchilarda asar haqida yaxshi fikr tug'diradi, taassurotlari kengayadi. Har bir adabiyot o'qituvchisi asarni tahlil qilishda o'quvchilarni ko'proq muhokamaga jalb qilishi kerak.

Dramatik asarlarni o'rgatishda yana bir usul qo'llanilsa bu ham ijobiy samara berishi mumkin. Asarning biror ko'rinishi yoki parchasini rollarga bo'lib, har bir o'quvchining qobiliyatini hisobga olib rollarga bo'lib berilsa va sinfda ijro etilsa har bir o'quvchida yaxshi taassurot qoldiradi, asar sujetini o'zlashtirish darajasi ham oshadi. Ta'lim berishning bu usuli pedamaliyotda qo'llanilgan va samaralari haqida ham ko'p tadqiqotlar yozilganidan xabarimiz bor.

Adabiyot darslarida biror dramatik asar o'rganilayotganada o'quvchilarni ifodali o'qishga ham o'rgatish usullaridan foydalanish lozim. Asardagi diologlarni, xususan monologlarni o'quvchilar ifodali o'qisa, dars jarayoni qiziqarli kechadi. Ayniqsa, o'quvchilarga monolog o'qitish, yod oldirish

tajribasidan qanchalik ko‘p foydalanilsa, o‘quvchilarda ifodali o‘qishga qiziqish kuchayadi. Masalan, Uyg‘un va I. Sultonlarning “ Alisher Navoiy” dramasi­dagi Navoiy va Guli monologi bilan bog‘liq sahnalardagi monologlarni o‘quvchilarga yodlatish yoki ifodali o‘qitish yaxshi samara berishi mumkin. agar bu drama maktab darsligiga kiritilmagan bo‘lsa, o‘quvchilarga tilga olingan monologlarni mustaqil o‘qib kelish yoki yod olish vazifasini berish zarur. M. Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek”, Cho‘lponning “Yorqinoy”, Fitratning “Abulfayzxon” va yana boshqa bir qator dramalar borki, ulardagi monolog va diologlarni shu usulda o‘tilsa dars qiziqarli va mazmunli bo‘lishi tabiiy, o‘quvchilarning san’atga bo‘lgan qiziqishi ham ortadi.

Adabiyot darslarida dramatik asarlarni o‘rgatishda, o‘rganilayotgan mavzuni kino san’ati bilan bog‘lab tahlil qilsa bo‘ladi. Agar maktab dasturidan o‘rin olgan sahna asari ekranlsh­tirilgan bo‘lsa, uni sahna variant bilan qiyoslansa o‘quvchilarda yaxshi taassurot qoldiradi. Qaysi biri ko‘proq tomoshabob, qaysi biri birmuncha zaif chiqqan. Bu jarayonda qaysi muallifning mahorati ustun rejisiyormi, muallifmi yoki ijro etgan aktyorlarmi? Bular haqida muhokam o‘tkazish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ko‘rgan yoki o‘qigan asari yuzasidan mustaqil fikr aytish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat etadi.

Ma’lumki dramatik turning uch janri bor:tragediya, komediya, drama. Maktab darsligiga ushbu turning qaysi janriga mansub asar kiritilgan bo‘lsa, u haqida nazariy ma’lumot berish zarur. Dramatik turlarning bir – birlaridan farqi to‘g‘risida, o‘ziga xoslik jihatlari haqida keng ma’lumot berish kerak. Aytilgan nazariy ma’lumotlar amaliy misollar bilan isbotlanishi zarur. Buning uchun o‘qiyuvchining o‘zida shu soha bo‘yicha chuqar bilim bo‘lishi, nazariy mukamallikka ega bo‘lishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobini yakunlar ekanmiz, har bir adabiyot o‘qituvchisi biror dramatik asarni o‘tishda quyidagi masalalarga alohida e’tibor berishi lozimligini yana bir bor takidlamochimiz. Birinchidan, har bir adabiyot o‘qituvchisi qaysi adabiy tur yoki adabiy janrni o‘tmoqchi bo‘lsa, albatta, asar matni bilan to‘la tanishgan bo‘lishi shart. Darslikdagi yoki

xrestamatiyadagi parcha bilan tanishib qo'yishi yetarli emas. Lirik tur bo'ladimi, yoki liro – epik tur janrlarimi yoki dramatik turga xos janr asari bo'ladimi, asarni to'raligicha o'qishi lozim. Shundagina u asar haqida to'la va mukammal bilim bera oladi.

Ikkinchidan, har bir adabiyot o'qituvchisi, adabiyot darsida badiiy matn ustida ishlashda ko'proq o'quvchilarni muhokamaga jalb qilishi, ularning u yoki bu asar to'g'risidagi fikrlarini tinglashi, o'zi xulosashi lozim. Adabiyot o'qiyuvchisi adabiy turning biror janriga tegishli asarni tushuntirayotganda o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini ham kuzatib borish zarur. Ora – orada ularga savol tashlab javoblarini ham eshitib borsa dars qiziqarli bo'ladi va o'quvchilarning mavzuga qiziqishi ham ortadi.

Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o'quvchilarga adabiy turlar va janrlar bo'yicha yaratilgan ilmiy ishlar, tadqiqotlar, kitoblar ularning mualliflari haqida ham qisman ma'lumot bersa, o'quvchilarning shu sohaga qiziqishi ortishi, kelajakda adabiyotshunoslikning biror yo'nalishi bilan shug'ullanishiga istak tug'ilishi mumkin.

Xullas, umumta'lim maktablarida adabiyot darslarida boshqa mavzularni o'rganish qay darajada ma'suliyatli bo'lsa, adabiy turlar va janrlar (lirik, liro – epik, dramatik ...)ni o'rganish ham shu darajada ma'suliyatli va har bir adabiyot o'qituvchisidan katta ma'suliyat, pedagogik mahorat yetuk tajriba talab etadi. Agar o'qituvchi biz tilga olgan mezonlarga to'la javob bera oladigan ustoz bo'lsa, u albatta maqsadga erishadi, nafaqat o'quvchilari, balki maktab jamoasi o'rtasida ham ulkan martabaga yetadi. Bunday tajribali, har jihatdan yetuk, mahoratli adabiyot o'qituvchilari respublikamiz maktablarida juda ko'p.

## XULOSA

Bitiruv malakaviy ishimizning kirish qismida qayd etganimizdek, yosh avlodni, xususan umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli beqiyos ekanligini yana bir bor takrorlamoqchimiz. Badiiy adabiyotsiz kim bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviy barkamol inson bo'lib shakllanish nihoyatda mushkul. Shuning uchun ham yosh avlodni, umumta'lim maktablari, kasb – hunar kollejlari, akademik litseylar va oily o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishni yaxshi yo'lga qo'yish, yangi pedagogic texnologiyalar asosida dars o'tishni tashkil qilish masalalari kun tartibiga qo'yildi. Bu masala davlat darajasidagi siyosatga ko'tarildi.

Ayniqsa, umumta'lim maktablarida bu ishning yaxshi yo'lga qo'yilishi lozimligi qator ta'lim bo'yicha qabul qilungan rasmiy hujjatlarda tilga olindi, vazifalar belgilab berildi. bu yo'nalishda Respublikamizda bir qator muvaffaqiyatlarga ham erishildi. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturining qabul qilinishi maktablarda ta'lim sifatini zamon talablariga ko'tarishda alohida bosqich bo'ldi deb bemalol ayta olamiz. Mustaqillik yillarida barcha fanlar qatorida adabiyot fani bo'yicha ham umumta'lim maktablari uchun darsliklar yozildi, nashr etildi, amaliyotga joriy qilindi.

Uslubshunos olimlar umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitish bo'yicha metodik qo'llanmalar nashr qildiradi. Maktablarda adabiyot darslarini qanday usul va uslublarda o'qitilsa yaxshi natijalar berishi mumkinligini amaliy qo'llanmalarida ko'rsatib berdi, yaratilgan bu qo'llanmalar, chindan ham, maktablarda adabiyot o'qitishda yaxshi qo'llanma vazifasini o'tamoqda. Biz bu o'rinda A. Zunnunov, S. Dolimov, S. Matjon, B. Tuxliyev, K. Yuldashev, Mirqosimov, T. Boboyev, K. Husanxo'jayeva, K. Jo'rayev va boshqa yana o'nlab olimlarning umumta'lim maktablarida adabiyot darslarini o'rganish usullari haqidagi qator kitoblari, maqolalarini tilga olib o'tishni ma'qul ko'rdik.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida tilga olingan olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda ish ko'rdik. Adabiyot darslarida adabiy tur va janrlarni o'rganishda nimalrga e'tibor berish zarurligi to'g'risidagi



qarashlarimizni bayon etdik. Ishimizning birinchi bobida adabiyot darslarida lirik va liro – epik tur va janrlarni o‘rganish usullari haqidagi nuqtai nazarlarimizni bayon etdik. Bu jarayonda o‘qituvchidan katta bilim, ijodkorlik qobiliyati zarurligini yana bir bor ta’kidlaymiz. Lirik turning qaysi janri (g‘azal, muxammas, she’r, qasida, marsiya...) o‘tilmasin har bir janrning o‘ziga xos xususiyatlari aniq misollar, tahlillar orqali tushuntirilishi lozimligini va bu jarayonda ko‘proq o‘quvchilarning faolligiga tayanish zarurligini qayd etdik. Yoki liro – epik turning biror janri(poema, doston, ballada) o‘tilayotganda ham shu usul qo‘llanilishi yaxshi samara berisi mumkinligi haqidagi tavsiyalarimizni berdik. Umuman, lirik va liro – epik tur janrlari o‘tilganda o‘quvchilarning ushbu mavzuga ijodiy tayyorgarligi, ko‘p asarlar o‘qigani yaxshi natija berishi mumkin degan xulosaga keldik.

Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi – “adabiyot darslarida dramatik asarlarni o‘rganish” bobida bir necha dramatik asarlar misolida bu janrni o‘rganishdagi o‘ziga xosliklar, qaysi pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish mumkinligi haqidagi fikrlarimizni bildirdik. “Yorqinoy”, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyalari misolida dramatik asarlarni o‘rganishning ba’zi usullari haqida to‘xtaldik va shunday xulosaga keldikki, adabiyot o‘qituvchisi dramatik asarni o‘qitishda mavzuni kundalik turmish bilan, kino va teatr san’ati bilan bog‘lab, qiyosiy usulda o‘tsa dars qiziqarli va mazmunli bo‘lishi mumkin.

Adabiyot darslarini o‘tishda o‘qituvchida pedagogik mahorat bilan birga, nazariy bilim ham bo‘lishi lozim. Agar o‘qituvchi nazariy savodli bo‘lsa har qanday badiiy asar haqida o‘zining shaxsiy nuqtai nazarlarini bildira oladi, o‘quvchilarini ham shunday fikrlashga o‘rgatadi. Adabiyot o‘qituvchisi faqat adabiyot darslaridagi ma’lumotlarni takrorlab qo‘ysa, o‘quvchilarni mavzuga qiziqтира olmaydi. Qaysi adabiy tur va janrni o‘rgatmasin, o‘qituvchi darslikdan tashqari yangi ma’lumotlar bersagina o‘quvchini qoniqtirishi, mavzuga qiziqtirishi mumkin. Bu esa o‘qituvchidan mustaqil ko‘p o‘qishini, ham amaliy, ham nazariy bilimga ega bo‘lishni taqozo etadi. Mazkur malakaviy bitiruv ishimizni yozish jarayonida yana bir xulosaga keldikki, adabiyot o‘qituvchisi yangi pedagogik

texnologiya usullari bilan puxta qurollangan, darsning zamonaviy usullarining barchasini to‘la o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak. Texnik vositlar bo‘ladimi, monitor, internet materiallari, kompyuterdan ham unumli foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu vositalardan foydalansagina adabiyot o‘qituvchisining darsi qiziqarli, mazmunli va zamon talablarida bo‘ladi. Bu usulni biz pedagogik amaliyotimiz jarayonida qo‘llab ko‘rdik va uning samarasini kuzatdik.

Bitiruv malakaviy ishimizning xulosasi tarzida yana bir mulohazalarni aytib o‘tishimiz zarur. Ushbu mavzu haqida ish yozgan ekanmiz, biz bu mavzuni to‘la – to‘kis yoritib berdik deb aytolmaymiz. Bu mavzu ko‘p izlanishlarni, ko‘lamli tadqiqotni taqozo etadigan tadqiqot. Biz uning ba’zi qirralarini yoritdik. Kelajakda bu mavzu yana tadqiqot obektiga aylanishiga ishonamiz. Keng ko‘lamli, ko‘pgina adabiy – badiiy manabalarni qamrab olgan va tahlil qilgan ishlar yozilishi tabiiy. Bizning mazkur tadqiqotimiz shu yo‘ldagi ilk qadam bo‘lib, uning ochilmagan qirralari kelgusida olimlar diqqatini jalb qiladi va fundamental ilmiy tadqiqotlar yaratiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor–ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.–Toshkent: 2009
3. Karimov I. Barkamol avlod. – Toshkent: 1997
4. Dolimov S, Ubaydullayev X, Axmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: 1967
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2006
6. Axmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish. –Toshkent: 1986
7. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: 1996
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: 2002
9. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: 2008
10. Salaev F, Kurboniyozov G. Atamashunoslik atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: 2010
11. Zunnunov A. O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. –Toshkent: 1973
12. Isxokov F. Maktabda Gulxaniy adabiy merosini o'rganish. –Toshkent: 1983
13. Yuldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy – nazariy asoslari. –Toshkent: 1996
14. Yuldoshev K va boshqlar. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: 1999
15. Yuldoshev K. O'qituvchi kitobi. 7 sinf. – Toshkent: 1997
16. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent. 2004.
17. HojiAxmedov A. Maktabda aruz vazni o'rganish. –Toshkent: 1978
18. Azizxojaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –Toshkent: 2003
20. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. –Toshkent, 2004
21. Qosimova K. 5 sinfda lug'at ustida ishlash. –Toshkent: 1971
22. Karimov F O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: 1980
23. Boliev M. Yangi innovatsion texnologiyalar – davr talabi. Ma'rifat 26.10.02

24. Yoʻldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yoʻnalishlari, muammolari, yechimlari. “Xalq taʼlimi” jurnali. 1999. 4-son.
25. Yoʻldoshev J. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari. “Xalq taʼlimi” jurnali. 1999. 6-son.
26. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: 1996.
27. Yoldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. Umumtaʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: 2005
28. Zunnunov A., Xotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – Toshkent: 1992
29. Karimov N. Mirzaev T., Nazarov B., Normatov U., Qosimov B. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: 2002.
30. Toʻxliiev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik.- Toshkent: 2005.
31. Mirqosimova M. Adabiy taʼlim metodikasi. – Toshkent: 1993.
32. Rahimova. O. Ona tili darslarida interfaol metodini qoʻllash. TAT. 2003. 4-son.
33. Ishmuhamedov R va b. “Taʼlimda innovatsion texnologiyalar”. – Toshkent: 2008.
34. Niyozmetova T. Adabiy taʼlimda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish./ Til va adabiyot taʼlimida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – Toshkent: 2008.
35. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
36. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
37. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)